

VATAN UCHUN, MILLAT UCHUN, XALQ UCHUN!



VATANPARVAR

Gazeta 1992-yilning
24-iyunidan chiqa
boshlagan

2025-yil 21-noyabr
№47 (3161)

MILLIY ARMIYAMIZ YANGI O'ZBEKISTONNING MUSTAHKAM QALQONIDIR!

www.mv-vatanparvar.uz

ARMIIYA

*"Vatanga sadoqat
qalbdan boshlanadi!"*

IJTIMOIIY-SIYOSIIY, MA'NAVIY-MA'RIFIY, HARBIY-VATANPARVARLIK GAZETASI

t.me/mv_vatanparvar_uz
vatanparvar-bt@mail.uz
facebook.com/mudofaavazirligi



t.me/mudofaavazirligi
instagram.com/mudofaavazirligi
youtube.com/c/uzarmiya

FAXR, BAXT, KELAJAK TIMSOLISAN, O‘ZBEKISTON BAYROG‘I!



Shuning uchun 1991-yil O‘zbekiston Respublikasi bayrog‘i qabul qilingan 18-noyabr sanasi mamlakatimizda har yili xalq bayrami sifatida nishonlanib kelinadi. Har safar shu sanani nishonlaganimizda uning ranglarida ifodalangan, faqat xalqimizga, yurtimizga, ona zaminimizgagina xos timsollar ko‘z o‘ngimizda, butun dunyo ahli qarshisida qayta-qayta gavdalanaveradi. Negaki bayrog‘imiz ranglarida yuksak insoniylik xislatlari uyg‘unligi mujassamlashgan. Bir so‘z bilan aytganda, ko‘p millatli O‘zbekiston qudratini butun bo‘y-basti bilan ko‘rsata oladigan timsoldir u.

*Bayroq o‘pib, ori uchun ont ichadi er yigitlar,
Tug‘ ko‘tarib, yurti uchun jon kechadi sher yigitlar.*

Moviy, oq, yashil, qizil ranglar hamda yarimoy va 12 ta yulduzni o‘zida uyg‘unlashtirgan O‘zbekiston Respublikasi bayrog‘i. Uning yuksaklarga ko‘tarilib hilpirashidan qalblarimiz to‘lqinlanadi, faxr hissini tuyamiz. Beixtiyor shu Vatanning farzandlari sifatida baxtdan sarmast bo‘lamiz. Chunki davlatimiz timsolining har bir hilpirashi, undagi ranglar misolida tinchlik, ona tabiat va yorqin kelajakni ifodalayveradi. Boy tariximiz, bugungi va ertangi farovon kunlarimizni butun olamga ko‘z-ko‘z qilayotganday bo‘laveradi.

Aslida bayrog‘imiz hilpiragan har bir kunimiz – butun o‘tmishimiz, bugunimiz va kelajagimiz uchun hamisha bayram tuyg‘usini bera oladi, albatta. Davlat rahbarlari miqyosidagi uchrashuvlar, xalqaro musobaqalar va anjumanlarda O‘zbekiston bayrog‘ini ko‘rib quvonmaymizmi? Quvonamiz! Quvonganda ham, bolalarcha beg‘uborlik bilan quvonamiz. Kimningdir quvonchdan ko‘zlari yoshlanadi. Yana kimningdir tanasida chumoli o‘rmalagandek badani jimirlab ketadi. Ayrimlar esa yonidagi yaqin kishisini quchgancha olamga sig‘may shodlanadi. Bunday hissiyotni boshidan o‘tkazmagan inson bormi O‘zbekistonda? Xullas O‘zbekiston Respublikasi bayrog‘ining ranglarida tasvirlanganidek yurtimiz tarixi va chiroyini, ajdodlarimiz hamda xalqimizning bag‘rikengligini, kelajagimizning istiqbolini o‘zida aks ettiradi.



Davlatimiz timsoli – bayrog‘imiz qabul qilinganining 34 yilligi bayrami butun mamlakatimiz bo‘ylab keng nishonlangani yana bir unutilmas voqea sifatida tarix zarvaraqlaridan joy oldi. Bayram tantanalari respublikamiz tuman va shaharlarida ommaviy yurishlar bilan boshlanib, butun viloyatlar miqyosini qamrab oldi. O‘zbekistonimizning ulkan bayrog‘i qo‘lma-qo‘l poytaxtimiz tomon yo‘lga chiqdi. Ushbu ommaviy yurishda harbiy xizmatchilar, sportchilar va boshqa kasb egalari, yoshlardan tortib qariyalargacha ishtirok etgani e‘tiborga loyiq. Mudofaaga ko‘maklashuvchi “Vatanparvar” tashkiloti hamda havaskor haydovchilardan iborat mashinalardagi bayroqlar kolonnasi, velopoygachilarning yurishi bayramga yanada ko‘rk bag‘ishlagani shubhasiz. Hamma shodon kayfiyatda. Tomoshabinlarning qo‘lida bayroqchalar hilpiraydi. Bolajonlarni aytmaymizmi? Gulgun chehralarida baxtli hayot aks etgan. Ko‘zlarida kelajakka ishonch porlaydi. Safda shaxdam qadam bilan o‘tayotgan Vatan posbonlariga hurmat ila





boqib, qo'lini harbiylarcha sharaf ko'rsatib turganini ko'rib, g'ururlanmaslikning iloji yo'q.

Anhor, ariq, kanallarda oqayotgan kuzning zilol suvi, osmonning musaffoligi ham bayroqdagi moviy rangga monand. Xuddi ular turkiy xalqlarga xos haqiqat,

yakunlagan O'zbekiston U-17 terma jamoasining bosh murabbiyi sifatida faoliyat olib borgan Islomjon Ismoilovning so'zlarini keltirib o'tsak:

“...Hech qachon unutmayman, har bir mashg'ulotda, har bir musobaqada biz O'zbekiston bayrog'ining sha'nini himoya qildik. Har bir o'yin oldidan bitta fikr bo'lardi: “Bu Vatan uchun jonfido! Bizni qo'llab-quvvatlagan, duo qilgan, ishonch bergan O'zbekiston xalqiga bosh egib, minnatdorlik bildiraman. Biz sizning muhabbatingizni, sizning mehringizni har bir daqiqada his qildik. Sizning ishonchingiz, bizning eng katta kuchimiz bo'ldi.

Rahmat, O'zbekiston!

Rahmat, mening ukalarim!

Rahmat, barcha qo'llab-quvvatlagan yurtdoshlar!”



sadoqat va bag'rikenglik haqida so'zlab berayotgandek. Hamyurtlarimizning ochiqko'ngilligi, intilishlari bayroqdagi oq rang misoli tinchlik va osoyishtalikning garovi sifatida aks etadi. Ona tabiat bilan tillashib, mavsumni serhosil yakunlagan, kelgusi yilga umid bilan urug' qadagan bobodehqonlarimiz mehnati bayroqdagi yashil rangda o'z ifodasini topgan. Mana shunday go'zal insoniylik qadriyatlari mamlakatimiz bo'ylab davom etgan ommaviy yurishlarda to'liqindek mavjlandi. Kuz quyoshining zarrin nurlaridek tovlandi. Shunga monand bayrog'imiz ham to'liqlanib hilpiradi.

Joylarda boshlangan ommaviy yurish estafetasi poytaxtimizning “G'alaba bog'i” yodgorlik majmuasida davom ettirilib, kuch tuzilmalarining maxsus bo'linmalari, harbiy orkestr, kursantlardan iborat kolonna “Xalqlar do'stligi” maydoniga qarab harakatlandi. Poytaxt ko'chalari bayrog'imiz ranglarida to'liqlandi. Minglab hamyurtlarimiz O'zbekiston bayrog'ining qanchalik muqaddas timsol ekanini yana bir marta anglab yetdi. “Xalqlar do'stligi” maydonida tashkil etilgan bayram tadbiri va dronlar shousi Davlat bayrog'imiz qabul qilinganining 34 yilligi bayramini munosib yakunlab berdi.

Shu o'rinda shogirdlari bilan 2025-yilgi Osiyo chempionligini qo'lga kiritgan, Qatardagi jahon chempionatidagi ishtirokini



Yuqorida aytilgan fikrlarimizga hamohang ravishda so'zimizni hamkasbimiz, shoira Zulfiya Yunusovaning she'ri bilan yakunlashni lozim topdik:

BAYROG'IM

Mag'rur hilpiraydi yurtim bayrog'i,
To'lqinida yashar zafar, shuhrat-shon.
U ozod elimning ori, mayog'i,
Muzaffar yo'llarga boshlovchi sarbon.

Uni jahongirlar aylab to'tiyo,
Poyiga umrini aylagan nisor.
U oddiy tug' emas, samoviy tug'ro,
Dastida shahidlar qutlug' qoni bor.

Asrlar ortida qad rostlagan u,
Bobom Amir Temur ko'zga surgan tug'.
Yog'iylar ko'ksiga sololgan qutqu,
Jang-u jadallarda qozongan dovruq.

Yalovbardorlarning qo'lida yovqur –
Qo'shinning ko'ksiga singdirgan qudrat.
Saflarning oldida turib-u mag'rur,
Zafar onlariga aylagan da'vat.

Ming bir evrilishlar, zamonlar osha,
Rangi o'zgargandir, o'zgadir shakli,
Ammo bir maqsadda sobit hamisha,
Hurligim bongi u, u Vatan faxri.

Yengilmas kurashlar boshida turgan,
Qudratli yalovga erurman voris.
Or-nomus, sharafni bag'rida tutgan,
Bayrog'im, poyingga cho'kadirman tiz.

Asror RO'ZIBOYEV,
“Vatanparvar”

O'z kasbining ustasi



Toshkent harbiy okrugiga qarashli kengliklarni tonggi salqinlik chulg'agan palla, "Chirchiq" poligonining qir-adirlari uzra harbiy mashqlar ovozi yangrab turardi. Har yili Qurolli Kuchlar safidagi eng malakali, eng jasur va eng mas'uliyatli harbiylar o'z kuchini sinovdan o'tkazadigan "O'z kasbining ustasi" tanlovining respublika bosqichiga start berilgan edi.



MARDLIK, MAHORAT

Unda alohida-alohida tarkibda – Mudofaa, Ichki ishlar vazirligi, Milliy gvardiya va Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo'shinlari vakillaridan tuzilgan eng sara harbiylar o'rtasidagi tanlov maydonida haqiqiy professionallar bahsiga aylandi. Bu tanlov – oddiy bellashuv emas. U har bir ishtirokchining yillar davomida to'plagan tajribasi, astoydil qilgan mehnati va xizmatga bo'lgan sadoqatini namoyon etish imkoniyati edi.

"O'z kasbining ustasi" tanlovining bosh maqsadi – o'z vazifasini chuqur anglaydigan, jangovar vaziyatga tayyor, rahbarlik salohiyati mustahkam, o'ziga va bo'ysunuvchilariga ishonch baxsh etuvchi harbiylarni aniqlash.

Bu tanlov orqali harbiy nizomlarni puxta bilish, qo'shinlar boshqaruvini to'g'ri tashkil etish, o'ta mas'uliyatli vaziyatda oqilona qaror qabul qila olish, jismoniy bardamlilik va ruhiy barqarorlik hamda jangovar mahorat kabi imkoniyatlar sinovdan o'tkaziladi. Tanlovda har bir ishtirokchi o'ziga nisbatan qo'yilgan talab darajasini yana bir bor baholaydi, sinab ko'radi va eng muhimi, harbiy kasbga bo'lgan sadoqatini isbotlaydi.

MAYDONDAGI KURASH

Tanlovning har bir kuni hissiyotlarga boy, mas'uliyatga limmo-lim bo'ldi. Harbiylar "Eng ilg'or



serjant", "Eng ilg'or guruh komandiri", "Eng ilg'or vzvod komandiri", "Eng ilg'or batalyon komandiri" va "Eng ilg'or brigada komandiri" nominatsiyalarida o'z mahoratini namoyish etdi.

Ularning har bir harakati – o'lchovli, har bir qarori – aniq, har bir bajargan mashqi esa mas'uliyat bilan singdirilgan edi. Chunki bu yerda kichik xato ham yuqori baholarga ta'sir qilishi, malaka darajasini pasaytirishi mumkin edi. Tanlov maydonidagi har bir ishtirokchi bitta maqsad bilan "Men o'z kasbimning haqiqiy ustasiman!" degan nomga sazovor bo'lish uchun kurashdi.





Muallif suratga olgan



VA MAS'ULIYAT



BILIM – HARBIYNING QUDRATI

Tanlovning nazariy qismida ishtirokchilar Qurolli Kuchlarning Umumharbiy nizomlari, jangovar tayyorgarlik qoidalari, ma'naviy-ma'rifiy ishlar va bo'linmalarni boshqarish jarayonlariga doir test sinovlaridan o'tdi.

Poligonning keng maydonida amaliy mashqlar boshlangach, harbiylar haqiqiy jangovar harakatga xos vaziyatga tushgan kabi harakat qildi. Har bir otishdagi aniqlik, har bir harakatdagi ehtiyotkorlik – bu harbiyning yillar davomida mehnat qilib egallagan mahoratini namoyon etdi.



Yugurish, to'siqlardan oshish, yuk ko'tarish esa yurt posbonlarining chidamliligi va matonatini ko'rsatdi.

Harbiylar murakkab sharoitda bo'linma boshqarish, yo'nalishni aniqlash, shartli dushman harakatlarini baholash va buni bo'ysunuvchilarga tezkor tarzda yetkazish bo'yicha o'z mahoratlarini ko'rsatdi.

MASHAQQAT BILAN QO'LGA KIRITILGAN NATIJA

Ishtirokchilarning nazariy bilimlari, jismoniy tayyorgarligi, otishdagi aniqligi va taktik fikrlashiga to'liq baho berilib, umumiy ballar yig'indisi hisoblab borildi.

G'oliblikka erishish – faqatgina kuch emas, shijoat, qat'iyat, mahorat, bilim va o'z kasbiga bo'lgan sadoqatning birlashishi orqali qo'lga kiritiladigan sharaf hisoblanadi. Shu fazilatlarni o'zida jamlagan harbiy xizmatchigina yuqori natijani zabt etishi muqarrar.

TANLOVNING AHAMIYATI

“O'z kasbining ustasi” tanlovi Qurolli Kuchlar tizimida juda katta o'rin tutadi. U harbiylarning kasbiy malakasini oshiradi, bo'linmalar o'rtasida sog'lom raqobatni kuchaytiradi. Shu bois bu tanlov nafaqat natijalar, balki ishtirokchilarning ruhiy birlik va birdamlik darajasini oshirishi bilan ham muhimdir.

“Chirchiq” poligonida o'tgan har bir kun – sinov, har bir mashq – mahorat, har bir qadam esa osoyishtaligimiz poydevorini mustahkamlashga xizmat qildi, desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Bu tanlov – Qurolli Kuchlarimiz safidagi sadoqatli, jasoratli, bilimdon va mahoratli harbiylarning faoliyat yuritayotganining navbatdagi isboti bo'ldi.

Sherzod SHARIPOV,
“Vatanparvar”

Armiya o'yinlari

OLG'A YURISH — MUVAFFAQIYAT KALITI

Bugun milliy armiyamiz saflaridagi har bir harbiy xizmatchi bu mening vzvodim, bu mening armiyam degan intilish, ruh va ishonch bilan xizmat vazifasiga yondashmoqda. Bu esa qo'shinlarimizning jangovar shayligini yanada oshirishga xizmat qilyapti. Mudofaa vazirligi miqyosida o'tkazib kelinayotgan "Men g'olib!" shiori ostidagi armiya o'yinlari doirasidagi musobaqalar ham kim nimaga qodir, kim yuqori jangovar tayyorgarlikka ega, kim eng ilg'or ekanini amalda isbotlash imkonini berayotgani bilan ahamiyatli bo'lmoqda.

Xususan, Sharqiy harbiy okrugning "G'urumsaroy" dala-o'quv maydonida o'tkazilgan "Eng ilg'or tank guruhi" ko'rik-tanlovining yakuniy bosqichi haqiqiy bahodirlar orasidan eng munosiblarni aniqlash imkonini berdi.

Aytish kerakki, shartlar haqiqatan mashaqqatli. Bu yerda yuqori tayyorgarlik ko'rmagan, kasbiy bilimlarni chuqur o'rganmagan, topqir va o'ziga ishonmagan qatnashchilar g'alaba qozona olmaydi.

– Harbiy xizmatchi hamisha hamma narsaga tayyor bo'lishi kerak, – deydi podpolkovnik Sergey Shuvayev. – Chunki u Vatan himoyachisi. Bu o'ta mas'uliyatli vazifa. Bo'lib

o'tgan bahslarga keladigan bo'lsak, qatnashchilar o'z imkoniyat va bilimlarini yana bir bor sinovdan o'tkazib oldi. Bu yerda jam bo'lgan harbiy xizmatchilar shunchaki ishtirok etmayapti – ular chin mutaxassis ekanini amaliy tarzda isbotlashga urinmoqda. Bilasizmi, ushbu musobaqalar yuqori iqtidorli va salohiyatli yurt o'g'lonlarini kashf etishga xizmat qilmoqda. Bosqichma-bosqich o'tkaziladigan bellashuvlarda chinakam mahorat egalari aniqlab olinadi. Natijada qo'shinlarimiz o'ziga ishongan, boshqaruvchanlik qobiliyati bor, murakkab vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qiladigan yurt o'g'lonlari bilan butlanib bormoqda.

Darhaqiqat, qalblar Vatan ishq bilan yonsa, har qanday to'siq

murakkabligini tamoman yo'qotadi. Darvoqe, musobaqada dastlab jamoalar o'rtasida qura tashlash marosimi o'tkazildi. Unda tank guruhlar o'z raqiblarini aniqlab oldi. Shundan so'ng ishtirokchilar jismoniy tayyorgarlik bo'yicha me'yorlarni topshirdi: turnikda mashq bajarish, yugurish sinovlaridan o'tish, otish tayyorgarligi, haydash mashg'ulotlari, aloqa va ommaviy qirg'in qurollaridan himoyalashda bilimlar namoyon bo'ldi. Shuningdek, tankdan qo'l granatalarini uloqtirish mashqida ham jamoalarning mahoratlari sinovdan o'tdi.

Murakkab sharoitda zirhli texnikani yuksak darajada boshqarish, nishonlarni mo'ljalga olish kabi jarayonlarda guruhlarining birdamligi, hamjihatligi baholandi.

Hayajonli va shiddatli bahslarga boy bo'lgan musobaqada qatnashchilar eng ilg'or ekanini isbotlashga bor jahdi bilan harakat qildi. Bu yerda ustozlardan o'rganilgan bilimlar, yillar davomida to'plangan tajribalar va mahoratlar qo'l keldi.

– Ushbu musobaqa ilk bor o'tkazilayotgan bo'lsa-da, unda hammamiz ishonchli ishtirok etdik, – deydi katta serjant Jonibek Yo'ldoshev. – Albatta, o'rganganlarimiz shartlarni bajarishda muhim rol o'ynadi. Chunki raqiblarimiz ham bellashuvlarga jiddiy hozirlik ko'rgan. Bu esa nafaqat bilimlar to'qnashuvi, balki bir maqsadni ko'zlagan qalblar kurashiga aylandi. Muhimi, o'zimizni, bor imkoniyatlarimiz va jangovar tayyorgarligimizni baholab olish imkoniga ega bo'ldik. Aytish kerakki, bu harbiy xizmatchi uchun, ayniqsa o'ta zarur.

Negaki kishi faqat bilim olib yursa-yu, uni amalda bir sinab olmasa, alaloqibat boshqalardan ortda qoladi. Biz – harbiy xizmatchilar esa buni sira ham istamaymiz. Musobaqalar ana shu imkoniyatni beradi. Ya'ni hamisha olg'a yurish – muvaffaqiyat kalitini ekanini o'rgatadi.

Qisqasi, zo'rlar o'z kasbining haqiqiy ustalari amalda bir necha kun davomida kurash olib borgan bahslar so'ngida Sharqiy harbiy okrug jamoasi birinchilikni qo'lga kiritdi. G'oliblarga medal, diplom va esdalik sovg'alar tantanali tarzda topshirildi.

Kapitan Shohrux SAIDOV,
"Vatanparvar"



Kapitan Orifon MAMAJONOV

Mardi maydonlar

VATANNI HIMOYA QILISH — ENG OLIY QADRIYAT

Sharqiy harbiy okrugda harbiy xizmatchilarning havodagi harakatlari, jismoniy tayyorgarligi va amaliy ko'nikmalarini yanada oshirish maqsadida parashyut bilan amaliy sakrash mashg'ulotlari tashkil etildi. Jarayonlar Farg'ona garnizonidagi dala-o'quv maydonida o'tkazilib, unga turli bo'linmalarda xizmat qilayotgan harbiy xizmatchilar jalb etildi.

Dastlab parashyut anjomlarini tartibga keltirish bo'yicha mashg'ulotlar olib borildi. Shundan keyin parashyutlar, osma tizimlar, xavfsizlik halqalari, yerga qo'nish moslamalari kabi anjom-aslahalarning har biri sinchkovlik bilan ko'zdan kechirildi. Chunki jihozlarning sozligi – harbiy xizmatchining hayoti, xavfsizligi va topshiriqlarni samarali bajarishida muhim ahamiyatga ega. Bunda xotirjamlikka berilib bo'lmaydi.

bu borada bilim va malakangiz yetarli bo'lmasa-chi? Unda yakun ayanchli bo'lishi mumkin. Demak, hammasi o'z qo'limizda. Bilasizmi, ba'zida harbiy xizmatchilar parashyutlarni taxlash va tartibga keltirishda biroz shoshadi. Ana shunday kezlarda ularni to'xtatamiz. Chunki bu borada har bir detalga ahamiyatli bo'lish shart. Bu yuqorida aytganimdek, vazifani a'lo bajarish imkonini beradi. Biz – ustozlar shogirdlarga shu



Boisi yerdagi xato ko'kdagi muvaffaqiyatsizlikka olib keladi.

Shu sababdan ham mashg'ulot rahbarlari tomonidan yakuniy ko'rsatmalar berilgach, amaliy qism boshlandi. Harbiylar o'tgan davr mobaynida egallagan bilim va ko'nikmalarini sinovdan o'tkazib, 3 000 metr balandlikdan parashyut bilan sakrashga kirishdi. Ushbu jarayonlarda Vatan himoyachilari oddiydan murakkabga qarab boruvchi vazifalarni amalda, qadam-baqadam bajardi. Muhimi, yigitlar havo kengliklarida boshqaruv, xavfsiz masofa saqlash va yerga

kabi hayotiy va kasbiy bilimlarni berib, ularning natijalarini yanada oshirishga ahamiyat qaratsak, milliy armiyamiz kuch-qudratining yanada oshishiga hissa qo'shgan bo'lamiz.

Ha, parashyutdan sakrash mashg'ulotini bajarish harbiy xizmatchidan katta kuch va matonat talab etadi. Shuning uchun ham bugun amaliy mashqni bajarayotgan yigitlar ham o'tgan vaqt davomida soha sir-asrorlarini mukammal o'rgandi. Har tomonlama toblandi.

– Vatanni himoya qilish – eng oliy qadriyat, – deydi kichik serjant Nozimjon Sotivoldiyev. – Egniga



kutilganidek tushish texnikalarini yanada mustahkamladi.

– Havo kengliklarida parashyut bilan yolg'iz qolasiz, – deydi podpolkovnik Timur Jumaboyev. – Ana shunda yerdagi natijalaringizga, bilimingizga suyanasiz: hammasini to'g'ri bajargan bo'lsangiz, unda o'zingiz xohlagan usulda va shaklda belgilangan joyga qo'nolasiz. Agar

harbiy libos kiyib, yurt tinchligi va osoyishtaligini ta'minlashni sharaf deya bilgan ekanmiz, demak, unga har tomonlama munosib bo'lishimiz kerak-da! Bilasizmi, eng ilg'or va tezkor desantchilar safida bo'lish uchun harbiy xizmatchi tinim bilmasligi kerak. Shunda o'zi istagandek natijaga erishadi. Maqsadingiz aniq bo'lsa,



harakatlaringiz ham shunga monand bo'ladi. Mashg'ulotlarda safdoshlarimiz bilan o'zaro tajriba almashamiz. Birimiz bilgan bilimlarni ikkinchimizga o'rgatamiz. Aslida mana shu kabi harakatlar biz – harbiylarni o'z kasbining haqiqiy ustasi bo'lishiga mustakam zamin yaratmoqda.

Ahamiyatlisi, mashg'ulotlar tungi vaziyatlarda ham davom ettirildi. Mashg'ulotlar yanada murakkablashdi. Biroq ichgan qasamiga sodiq desantchilar ko'rish cheklangan vaziyatlarda ham ortga qaytmay, havo transportidan parashyut bilan amaliy sakrashlarni olib bordi. Jarayonlar real vaziyatlarga yaqinlashtirilgani bilan ham ahamiyatli bo'ldi. Albatta, tungi sakrashlar harbiylarga turli ekstremal sharoitlarda to'g'ri va tezkor qaror qabul qilish, noaniq vaziyatlarda o'zini boshqarish kabi muhim

o'z foydasiga o'zgartirish kabi eng katta ustunliklarini yorqin namoyon etadi.

Bugun doimiy mashg'ulotlarda toblanayotgan yurt o'g'lonlari ham ana shunday murakkab jangovar vazifalarni bajarishda



Muallif suratga olgan



ko'nikmalarni rivojlantirishga xizmat qildi.

Ma'lumki, dunyo tarixidagi eng yirik desantlashtirish amaliyoti XX asrning o'rtalarida amalga oshirilgan bo'lib, o'sha paytda 35 ming nafardan ortiq parashyutchi bir necha kun davomida belgilangan hududga joylashtirilgan. Mazkur tarixiy fakt havo-desant bo'linmalarining kutilmagan hududga tushib, uni egallash, tezkor manyovr qilib yangi pozitsiyaga o'tish, vaziyatni

zamonaviy desant amaliyotlari talab qiladigan bilim va ko'nikmalarni puxta egallab bormoqda. Xullas, Sharqiy harbiy okrugda o'tkazilgan mashg'ulotlar harbiy xizmatchilarning amaliy tajribasini, ruhiy tayyorgarligini va jismoniy bardoshlilikini yanada kuchaytirmoqda.

**Leytenant
Mirjalol ABDUJABBOROV,
Sharqiy harbiy okrug
matbuot xizmati**

Tanlov

JISMONIY AQLIY BARDOSHDAN SALOHİYATGACHA

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari kadrlar siyosatida muhim o'rin tutadigan kontrakt asosida xizmatni davom ettirish tizimi yil sayin takomillashib bormoqda. Shu maqsadda qo'shinlarda muddatli harbiy xizmatni o'tayotgan va o'z faoliyatini kontrakt asosida davom ettirish istagini bildirgan nomzodlar o'rtasida navbatdagi harbiy-kasbiy saralash bo'lib o'tdi. Mazkur jarayonda nafaqat talabgorlar tanlanadi, balki ularning jismoniy, intellektual va psixologik imkoniyatlari ham sinovdan o'tkaziladi.

QUVVAT VA IRODA TO'QNASHGAN PALLADA

Saralashning birinchi bosqichi an'anaviy tarzda jismoniy tayyorgarlikni baholashdan boshlandi. Nomzodlar 100 va 3 000 metrga yugurish, turnikda tortilish kabi mashqlarni bajardi. Ushbu

ham chiniqqanmiz. Bu boradagi intilishlarim bugun o'z samarasini ko'rsatdi. Shuning uchun ham sinovlarda o'zim kutganimdan ham yaxshiroq natija qayd etdim. Men uchun bu sinovlar oddiy mashqlar emas, balki o'z imkoniyatlarimni yana bir bor namoyon qilishda muhim ahamiyat



ko'rsatkichlar harbiy xizmatchining yuklamaga chidamliligi, tezkorligi va umumiy sport tayyorgarligi qay darajada ekanini ko'rsatuvchi asosiy mezonlardan biri hisoblanadi.

– Jismoniy tayyorgarlik bosqichi biz uchun qiyinchilik tug'dirmadi, – deydi muddatli harbiy xizmatchi Azizbek Bo'riyev. – Chunki biz doim sport bilan shug'ullanamiz, mashg'ulotlar orqali nafaqat jismoniy, balki ruhiy jihatdan

kasb etadi. Oldinda yana sinovlar turibdi. Saralashning keyingi bosqichlaridan yuqori natijalarni qo'lga kiritib, Vatanimizni himoya qilishdek sharaflari va mas'uliyatli yo'lda xizmat qilish niyatim bor. Shu maqsad yo'lida har kuni tayyorgarlikni kuchaytirayman.


Mutasaddilar ta'kidlashicha, jismoniy me'yorlar nafaqat oddiy sinov sifatida, balki nomzodning xizmatga shaxsiy munosabati, intizomi va irodaviy sifatlarini

ham aks ettiradi. Natijalar belgilangan tartib asosida baholandi va har bir ishtirokchining jismoniy holati bo'yicha xolis xulosa chiqarildi.

INTELLEKT – ZAMONAVIY HARBIYNING ENG KUCHLI QUROLI

Jismoniy sinovlardan so'ng nomzodlar intellektual va kasbiy bilimlarini namoyish etishi lozim bo'ldi. Tashkil etilgan testlar orqali ularning mantiqiy fikrlashi, vaziyatni baholash qobiliyati, harbiy-siyosiy tushunchalardan xabardorligi hamda davlat va harbiy qonunchilikni qay darajada bilishi tekshirildi.

Bunday sinovlar harbiy xizmatchining faqat jismonan emas, balki aqlan ham yetuk bo'lishini talab qiladi. Zero zamonaviy armiyada qabul qilinadigan qarorlar tezkor fikrlash, tahlil qilish va qonunchilik talablarini puxta anglashni taqozo etadi.



arizalarini Mudofaa vazirligining maxsus rekrutning platformasi orqali qabul qilinganidir. Yangi elektron tizim inson omili ta'sirini kamaytirish, ma'lumotlar oshkoraligi va xolis baholashni ta'minlash maqsadida joriy etilgan.

Platforma orqali ariza topshirish imkoniyati qo'shinlarda xizmat qilayotgan har bir yigit uchun teng imkoniyat yaratdi. Tizimning joriy etilishi mamlakatimizda zamon bilan hamnafas tarzda kadrlarni tanlashda raqamli yo'nalishga o'tilayotganidan, bu borada halollik va adolat mezonlariga



REKRUTING – TANLOV JARAYONIDAGI SHAFFOFLIK KAFOLATI

Bu yil saralash jarayonining muhim yangiligi nomzodlar

tayangan yangi amaliyot shakllanib borayotganidan dalolat beradi.

KUCHLI KADR MAMLAKAT MUDOFASINING ASOSIY TAYANCHIDIR

Saralash jarayonlari natijasida kontrakt bo'yicha harbiy xizmatga munosib deb topilgan nomzodlar keyinchalik qo'shinlarning turli bo'linmalarida xizmat qilishi, mas'uliyatli vazifalarni bajarishi ko'zda tutilgan. Demak, zamonaviy armiyaning muvaffaqiyati, birinchi navbatda, bilimli, jismonan chiniqqan va mas'uliyatli kadrlarga bog'liq.

Shu bois tanlov jarayonlari milliy armiyamizning jangovar tayyorgarligini oshirishga qaratilgan keng qamrovli islohotlarning bir bo'g'ini sifatida baholanmoqda.



Ro'ziqul OCHILOV,
"Vatanparvar"

Malaka

YANGI KO'NIKMALAR O'ZLASHTIRILDI

O'zbekiston Respublikasi Harbiy xavfsizlik va mudofaa universitetida joriy yilning 3-15-noyabr kunlari kadr organlari ofitserlarining malaka oshirish kursi tashkil etildi.

Unda 11 ta moduldan tashkil topgan o'quv dasturi asosida professor-o'qituvchilar va tajribali mutaxassislar tomonidan nazariy va amaliy mashg'ulotlar o'tildi hamda kadr yo'nalishidagi yangi normativ hujjatlar talablari yetkazildi. Jumladan, harbiy jamoaning psixologik xususiyatlari, qo'shnlarda axborot-tahliliy



faoliyat, harbiy xizmatni o'tashni tashkillashtirish bo'yicha me'yoriy hujjatlar, ishchi-xizmatchilar bilan ishlash bo'yicha Mehnat kodeksining talablari, kadrlar zaxirasini shakllantirish, elektron ma'lumotlar platformasida ishlash,

faoliyatni raqamlashtirish kabi dolzarb mavzularda treninglar va mashg'ulotlar o'tildi.

– Bugun dunyoda, shu jumladan, mamlakatimizda ham raqamlashtirish, sun'iy intellekt imkoniyatlaridan keng foydalanish jarayonlari jadal ketyapti, – deydi kurs tinglovchisi katta leytenant Akbarali Anvarov. – Kadr sohasiga ilg'or axborot texnologiyalari, zamonaviy platformalar joriy etilmoqda. Shu munosabat bilan biz, kadr organlari ofitserlariga axborot texnologiyalari, maxsus dastur va platformalar bilan ishlashni o'rganish, zaruriy adabiyotlarni o'qib, o'z dunyoqarashini kengaytirish bo'yicha tavsiyalar berildi. Kurs davomida olingan bilim va amaliy ko'nikmalarimiz

kelgusi xizmat faoliyatimizda ijobiy samara beradi.

Malaka oshirish kursining bitiruv tadbirida Mudofaa vazirligi Kadrlar bosh boshqarmasi rahbariyati tomonidan kurs tinglovchilariga sertifikatlar topshirildi. O'z navbatida, kadr organi ofitserlari, ayniqsa ayni sohaga yangi tayinlangan ofitserlarning nazariy bilimlari, intellektual va ma'naviy saviyasini oshirish, tahliliy va ijodiy fikrlash



salohiyatini kengaytirish, shaxsiy tarkib bilan ishlash bo'yicha zamonaviy yondashuvlarni muntazam o'rganish zarurligi qayd etildi.

**Katta leytenant
Dilshod RO'ZIQULOV,
"Vatanparvar"**

Ekskursiya

BURCHGA SADOQAT OSHYONI

Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti Chegara qo'shinlari kadrlarini tayyorlash fakultetining "Taktik boshqaruv bo'g'inidagi ofitserlar" malaka oshirish va "Chegara qo'shinlari tarbiyaviy va mafkuraviy ishlari organ

ruhini mustahkamlash maqsadida uyushtirilgan ekskursiya davomida muzey xodimlari yig'ilganlarni ushbu maskanning tarixiy holatiga oid batafsil ma'lumotlar bilan tanishtirdi. Chegara qo'shinlarining

O'zbekistonning mustaqillikdan keyingi davrida chegara xavfsizligini ta'minlash yo'lida xizmat qilgan qo'mondonlar va askarlarning jasorati yosh ofitserlar uchun katta ibrat bo'ldi.

Shuningdek, muzeyda tashkil etilgan videolavhalar va interaktiv ekspozitsiyalar orqali tinglovchilar harbiy xizmatchilarning kundalik faoliyati bilan yaqindan tanishdi. Tashrif yakunida mehmonlar o'z taassurotini bayon etib, Vatan himoyasiga doimo tayyor bo'lish zarurligini ta'kidladi.

Tinglovchilar Chegara qo'shinlari faoliyati, uning tarixiy o'rni va ahamiyatiga oid yangi bilimlarga ega bo'ldi. Tashrif natijasida tinglovchilar orasida vatanparvarlik, fidoyilik va harbiy burchga sadoqat tuyg'usi yanada



mustahkamlandi. Bunday tadbirlar yosh avlodni ma'naviy va axloqiy jihatdan kamol toptirish, ularning tarixiy xotirasini boyitishda muhim ahamiyat kasb etadi.

**Polkovnik Husan XAITOV,
Harbiy xavfsizlik va
mudofaa universiteti
fakultet boshlig'i**



ofitserlari" qayta tayyorlash kursi tinglovchilarining O'zbekiston Respublikasi DXX Chegara qo'shinlari tarixiy muzeyiga tashrifi amalga oshirildi.

Tinglovchilarning o'qishdan tashqari vaqtini mazmunli o'tkazish hamda Vatan himoyachilariga hurmat tuyg'usini kuchaytirish, DXX Chegara qo'shinlari tarixini chuqurroq o'rganish hamda milliy g'urur va vatanparvarlik

shakllanish tarixi, ularning mustaqillik yillaridagi rivojlanish bosqichlari va mard askarlarning qahramonliklari haqida qimmatli ma'lumotlar berildi.

Muzeyda joylashtirilgan hujjatlar, tarixiy fotosuratlar, harbiy liboslar, qurol-aslahalar va boshqa ekspонатlar orqali tinglovchilar o'tgan davrda xizmat olib borgan chegarachilarning hayotini ko'z oldiga keltirish imkoniga ega bo'ldilar. Ayniqsa,



BILIM, IQTIDOR, FIDOYILIK



“Oila – men uchun muqaddas. Muqaddasligi shuki, avvalambor qayerda ishlashidan qat’i nazar, kim bo’lishidan qat’i nazar agar oilada tarbiya, oilada muhit, oilada halollik, munosabat, tarbiyaga alohida e’tibor bermasa, hech qachon natija bo’lmaydi”.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev

Maqolamizni bejiz davlatimiz rahbarining oila haqidagi iqtibosi bilan boshlamadik. Negaki jamiyat negizini tashkil etuvchi oilalarda tinchlik va farovonlik bardavom ekan, mamlakat ham yanada rivojlanadi. Shu sabab davlatimiz tomonidan oilalarga, millat istiqboli bo’lmish o’g’il-qizlarga katta e’tibor qaratilayotgani bejiz emas.

O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi tizimida ham harbiy xizmatchilarning oila a’zolari uchun zamon talabi asosidagi sharoit, ijtimoiy himoya, g’amxo’rlik va bir qator imkoniyatlar yaratilganiga guvohmiz. Tun-u kun ular bilan hamnafas bo’lib ishlayotgan Mudofaa vazirligi Tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar bosh boshqarmasining harbiy xizmatchilarning oila a’zolari bilan ishlash bo’limi bosh mutaxassislari hamda vazirlik tasarrufidagi harbiy okrug, harbiy qism va muassasalarda faoliyat yuritayotgan xotin-qizlar va harbiy xizmatchilarning oila a’zolari bilan ishlash bo’yicha yetakchi mutaxassislarning xizmatini e’tirof etish joiz.

KASBIY MAHORATDA KIMLAR YETAKCHI

Yetakchi mutaxassislari doimiy ravishda harbiy oilalar bilan ishlash asnosida, o’z ustida izlanish, o’quv-uslubiy yig’inlarda bilim va malakalarini oshirib borish, turli yo’nalishdagi tanlovlarda ishtirok etishga harakat qilishadi. Shunga asosan, Mudofaa vazirligi Tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar bosh boshqarmasi tomonidan “Xotin-qizlar va harbiy xizmatchilarning oila a’zolari bilan ishlash bo’yicha eng ilg’or yetakchi mutaxassis” tanlovi amalga oshirildi.

Tanlovda dastlab so’z olgan Mudofaa vazirligi Tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar bosh boshqarmasi boshlig’i polkovnik Xasan Xalilov harbiy xizmatchilarning oila a’zolari bilan olib borilayotgan ishlarga to’xtalib o’tdi. Ushbu yo’nalishdagi kamchilik va muammolarning oldini olish, mavjudlarini o’z o’rnida hal etish borasida fikrlar bildirdi. O’z navbatida, tanlov ishtirokchilariga omad tiladi.

Tanlovda respublikamiz bo’ylab harbiy okrug, harbiy qism va muassasalarda faoliyat yuritayotgan yetakchi mutaxassislari ishtirok etdi. Ularning kasbiy mahoratini oshirish, yil davomida bajargan ishlarini yuzaga chiqarishga qaratilgan bellashuvni Mudofaa vazirligi Tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar bosh boshqarmasi bo’lim boshlig’i podpolkovnik Jahongir Qalandarov hamda bosh boshqarma harbiy xizmatchilarining oila a’zolari bilan

ishlash bo’limi bosh mutaxassislari Zulfiya Mansurova va Gulruh Parmonovalar odilona baholab bordi.

O’ziga hos tarzda amalga oshirilgan tanlovning dastlabki bosqichida harbiy okruglardagi xotin-qizlar va harbiy xizmatchilarning oila-a’zolari bilan ishlash bo’yicha yetakchi mutaxassislari o’z faoliyati, rejalashtirgan innovatsion g’oya va hisobotlarini videoroliklar orqali prezentatsiya qilishdi. Ular hisobot davomida harbiy okrug tasarrufidagi harbiy qism va muassasalarda ish olib borayotgan yetakchi mutaxassislarning faoliyatiga alohida urg’u berib o’tdi.

Tanlovning ushbu shartida Mudofaa vazirligiga qarashli qo’mondonlik xotin-qizlar va harbiy xizmatchilarning oila a’zolari bilan ishlash bo’yicha yetakchi mutaxassis Nargiza Abdullayeva yetakchilikni qo’lga kiritdi.



MUAMMOLAR YECHIMI SAHNADA

Sir emaski, oilalar bilan ishlash ancha zalvarli vazifa. Har bir oilaning o’ziga xos yashash tarzi, ichki muammolari bor. Oila bekalari bilan dildan suhbatlashish, sirlashish, ularga jo’yali maslahat va yordam berish uchun yetakchi mutaxassislarda bilim va zakovat va albatta, oilaviy tajriba mukammal bo’lishi lozim. Oiladagi muammolarni hal etishda tajribaning o’rni muhim. Tanlovning navbatdagi shartida oilalarda ko’p uchraydigan muammolar, ularning yechimini hal etishni sahna orqali ko’rsatish belgilandi.

Aktyorlar sahnaga chiqqanda o’ynayotgan roliga kirishib ketadi, atrofni unutadi, talqin etayotgan qahramonining dardi bilan yashaydi. Yetakchi mutaxassislari ham oilalar bilan hamnafas ishlayotgani sabab harbiy xonadonlardagi ma’lum muammoli vaziyatlarni sahnaga olib chiqdi. Xuddi aktyorlar singari oilaviy holatlarni, rollarini kerak chog’da kulgi, yoxud ko’zda yosh bilan ishonarli tarzda talqin etishdi. Muammolar yechimini talab darajasida ochib berishdi.

Ushbu bellashuvda Shimoli-g’arbiy harbiy okrug hamda Janubi-g’arbiy maxsus harbiy okrug yetakchi mutaxassislarning sahna ko’rinishi e’tirofga sazovor bo’ldi.



SPORT – SALOMATLIK GAROVI

Bellashuvning uchinchi bosqichini yetakchi mutaxassislari Mudofaa vazirligi maxsus avariya-tiklash boshqarmasining sport zalida davom ettirdi. Shartga ko’ra, tanlov ishtirokchilari darts – mo’ljalga olish va voleybol setkasiga to’p tushirish mashqlarini bajardi.

Takidlash joizki, sport yo’nalishidagi bellashuv qizg’in va murossasiz kechdi. Sport libosidagi tanlov ishtirokchilari belgilangan vazifani astoydil bajarishdi. Guruhining yetakchi bo’lishiga zamin yaratdi. Ularning har bir harakatini harbiy sport ustalari baholab bordi.

Sport bellashuvida birinchi o’rin Markaziy harbiy okrug vakillariga nasib etdi. Ikkinchi o’rinni Shimoli-g’arbiy harbiy okrug yetakchi mutaxassislari qo’lga kiritdi. Uchinchi o’rinni Toshkent harbiy okrugi yetakchi mutaxassislari egalladi.



“ZAKOVAT” BELLASHUVI

Harbiy xizmatchilarning oila a’zolari bilan ishlash bo’yicha yetakchi mutaxassislarning barchasi oliy ma’lumotli bo’lib, bilim va iqtidorga ega. Ularning bilim va ko’nikmalarini aniqlash maqsadida “Zakovat” intellektual o’yini amalga oshirildi.

O'Z SO'ZINI AYTDI



Zakovat o'yinida tanlovda ishtirok etayotgan yettita guruhning har biridan to'rt nafardan vakil tanlab olindi. Bellashuvda bilim va tafakkurni charxlaydigan bir-biridan qiziqarli savollar berildi. Qaysi guruh birinchi bo'lib to'g'ri javob bersa ball o'shaniki.

Zakovat bellashuvida Toshkent harbiy okrugi vakillari birinchilikni egallagan bo'lsa, ikkinchi o'rinni Havo hujumidan mudofaa qo'shinlari va Harbiy havo kuchlari qo'mondonligi, Janubi-g'arbiy maxsus harbiy okrug va Toshkent harbiy okrugi yetakchi mutaxassislari qo'lga kiritdi. Uchunchi o'rin Sharqiy harbiy okrug yetakchi mutaxassislari qo'lga kiritdi.

Shuningdek, tanlov davomida hay'at a'zolari tomonidan xotin-qizlar va harbiy xizmatchilarning oila a'zolari bilan ishlash bo'yicha yetakchi mutaxassislarning kasbiy tayyorgarlik bo'yicha test sinovlaridan o'tdi. Har bir yetakchining belgilagan javobi shaffof tarzda baholandi.



TANLOV O'Z G'OLIBLARINI KASHF ETDI

Mudofaa vazirligi tasarrufidagi harbiy okrug, harbiy qism va muassasalarda harbiy xizmatchilarning oila a'zolari bilan ishlash bo'yicha yetakchi mutaxassislarning o'rtasida "Xotin-qizlar va harbiy xizmatchilarning oila a'zolari bilan ishlash bo'yicha eng ilg'or

yetakchi mutaxassis" tanlovi o'z g'oliblarini kashf etdi.

Ikki kun davom etgan qiziqarli va murosasiz bellashuvda dastlab nominatsiyalar bo'yicha o'rin olganlar e'lon qilindi. Unga ko'ra, "Eng ko'p harbiy xizmatchilar turmush o'rtog'ining bandligini ta'minlagani uchun" nominatsiyasi O'zbekiston Respublikasi Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti harbiy xizmatchilarning oila a'zolari bilan ishlash bo'yicha yetakchi mutaxassis Dildora Abdurahmonovaga berildi.

"Harbiy oilalar o'rtasida eng ko'p ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tashkillashtirgani uchun" nominatsiyasi Janubiy-operativ qo'mondonlik vakili Munavvar Xudoyqulovaga nasib etdi.

"Harbiy oilalar o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilgani uchun" nominatsiyasini Mudofaa vazirligiga qarashli qo'mondonlik yetakchi mutaxassisi O'g'iloy Mamatqulova egalladi.



vazirligiga qarashli qo'mondonlik yetakchisi Nargiza Abdullayeva qo'lga kiritdi.

Nihoyat, barcha kutgan hayajonli daqiqalar yetib keldi. "Xotin-qizlar va harbiy xizmatchilarning oila a'zolari bilan ishlash bo'yicha eng ilg'or yetakchi mutaxassis" tanlovining umumjamoa o'rtasidagi g'oliblari tantanali ravishda e'lon qilindi:



Harbiy qism yetakchi mutaxassislari o'rtasida 1-o'rinni Sharqiy harbiy okrug vakili Fotmaxon Rahmatillayeva qo'lga kiritdi. 2-o'rin Shimoli-g'arbiy harbiy okrug yetakchi mutaxassisi Azira Bekimbetovaga berildi. 3-o'ringa Markaziy harbiy okrug vakili Hafiza Eshniyozova munosib topildi.

Mudofaa vazirligi harbiy okrug yetakchi mutaxassislari o'rtasida esa Toshkent harbiy okrugi yetakchisi Odinaxon Odilova 1-o'ringa egalik qildi. 2-o'rin Havo hujumidan mudofaa qo'shinlari va Harbiy havo kuchlari qo'mondonligi yetakchisi Hilola Tursumatovaga nasib etdi. 3-o'rinni Mudofaa

1-o'rin g'olibligini Mudofaa vazirligiga qarashli qo'mondonlik yetakchi mutaxassislari qo'lga kiritdi.

2-o'rin Janubi-g'arbiy maxsus harbiy okrug vakillariga nasib etdi.

3-o'rin Mudofaa vazirligi Havo hujumidan mudofaa qo'shinlari va Harbiy havo kuchlari qo'mondonligi vakillari egalladi.

G'oliblar va tanlovning barcha ishtirokchilari qimmatbaho sovg'alar, diplom va faxriy yorliqlar bilan taqdirlandi.

Zulfiya YUNUSOVA,
"Vatanparvar"



O'tmish sadosi



KOSHG'ARIYNING “TURKIY GASTRONOMIYA”SI: “TUTMACH”, “TURMAK”, “TAMG'ALIQ” ...

Mahmud Koshg'ariyning “Devonu lug'oti-turk” asari turkiy xalqlar tarixi, tili, urf-odat va an'analari, turmush tarzi haqida ma'lumot beruvchi tayanch manbalardan biri hisoblanadi. Garchi “Devon” ensiklopedik lug'at sifatida tuzilgan bo'lsa-da, unda turkiylar hayotining aksi, kundalik faoliyati, hatto iqtisodiy va maishiy masalalar, xususan, oziq-ovqat, marosim taomlari haqida ham muhim ma'lumotlar uchraydi.

Xususan, turkiy xalqlar iste'molida faol bo'lgan mahsulotlar, taom tayyorlash texnologiyasi, hatto marosim taomlari haqida ham qimmatli bilimlar shular jumlasidandir.

Qadimiy turkiy xalqlar hayotida go'sht, sut, donli mahsulotlar faol o'rin tutadi. Bu hol tabiiyki, ularning ko'chmanchi chorvachilikka asoslangan xo'jalik tizimi bilan ham uzviy bog'liq. Devonda keltirilgan ayrim taom nomlari bugungi kunda ham turkiy xalqlar oshxonasida saqlanib qolgan bo'lib, ushbu madaniy merosning qadimiy ohori va tarixidan darak beradi.

Masalan, “Devon”da keltirilgan “tansuq” (“tangsuq”) so'zi noyob mazaga ega, maxsus taomlarga beriladigan sifat o'laroq qo'llaniladi. Bilamizki, odatda turkiy so'zlar qisqa va ohangdor shaklda bo'lgan. Bugungi kunimizda qo'llaniladigan taom, ovqat so'zlari o'rniga dastavval barcha oziq-ovqatlarga nisbatan “ash” (osh) atamasi ishlatilgan.

Tilimizdagi “Osh bo'lsin” iborasi ham aslida o'sha ma'noga yo'g'rilgan so'z hosilasi. “Devon”da uning muqobili sifatida yem so'zi ham ishlatiladi. Bu atama o'sha davrda “ash” bilan tengma-teng muomalada bo'lgan. Ya'ni “Yem keltir” iborasi “taom olib kel” ma'nosini ifodalagan. Koshg'ariyga ko'ra, yem tayyor holda iste'mol qilinishi mumkin bo'lgan ovqatni bildirib, muallif uning yaxlit va pishgan holatiga urg'u beradi. Ammo vaqt o'tib, ushbu so'z turli ma'no siljishlariga uchrab borgan ma'lum. “Yemak” hozir ham tilimizda uchrasa-da, ammo yem (yemish) o'zbek jamiyatida hayvonlarga beriladigan ozuqa ma'nosida ko'proq ishlatiladi. Shunday

bo'lsa-da, ayrim qardosh xalqlarimiz tilida bu nomlar hamon yashab kelmoqda: Turk tilidagi “yemek”, qozoq tilidagi “jem” kabi shakllar bevosita shu o'zak bilan bog'liqdir.

Darvoqe, noz-ne'matlar bilan to'la dasturxonni bir so'z bilan nima deb ataladi? “Devon”da aynan shunday so'z bor. Tergu(i) turli ovqatlar bilan to'la “ochil dasturxon”ni anglatadi. Bu atama taomni emas, mo'l-ko'l dasturxonni ifodalab keladi. Odatda tergu katta yig'ilishlar, muhim mehmon kutish, ahamiyatga molik jarayonlar uchun yozilgan.

Yana bir taom nomi “Chivgin” deyilib, matnda “Chivgin ash” ko'rinishida keladi. U to'q tutuvchi, quvvat beruvchi ovqat sifatida tasvirlanib, asosan go'shtli, yog'li taomlarga nisbatan qo'llaniladi. “Chivgin ash” harbiy yurishlarda, uzoq safarlarda va kuch talab etuvchi og'ir mehnat jarayonida iste'mol qilingan.

“Devon”dagi taomlardan yana biri “Kevgin” bo'lib, u “Chivgin”dan farqli ravishda tez hazm bo'ladigan, tanaga ko'p quvvat bermaydigan suyuq va yengil taom sanalib, kundalik ovqatlardan biri hisoblangan.


O'z tarixiga ega bo'lgan “Tutmach” esa mashhur taom bo'lib, uning paydo bo'lishi turlicha talqin qilinadi. Rivoyatga ko'ra, Iskandar Zulqarnaynga ochlikdan qo'rqqan kishilar: “bizni och kuyma, och tutma” mazmunida “tutma ach” deb yolvorishgan. Jahongashta esa ulamolar bilan kengashgan va natijada shu yemak tayyorlangan. Bu ovqat tanaga quvvat berib, yuzga qon yugurtirib, tezda hazm bo'lmasdi. Shuning uchun

taomlanishdan so'ng uning suvidan ham ichilardi. Aholi uni shu tariqa “tutmach” deb atagan.

Tuxum, maydalangan go'sht, non yoki boshqa mahsulotlar aralashtirilib qovurilgan yoki o'rab pishirilgan yana bir ovqat “turmak” deyiladi. Uning tayyorlanishida mahsulotlar bir-biriga “turmaklanadi”, ya'ni birlashtiriladi.

E'tibor berilsa, taom nomlari uning ayni tayyorlanish jarayoni bilan bevosita bog'liqligini ko'rish mumkin. Yana ayrimlarining kelib chiqishi aniq fakt yoki rivoyatlarga asoslanadi. Shulardan biri “Tamg'aliq” bo'lib, u bir kishilik maxsus dasturxonni anglatadi. Tamg'aliq “muhrlangan” demakdir. Odatda, podsho o'zi uchun atalgan dasturxon va ko'zachani muhrlab qo'yadi, unda bir kishiga loyiq sharob va ovqat bo'ladi. Muddao shundaki, podshodan boshqa kishi undan ovqat yeya olmasligi uchun dasturxonga tamg'a urilgan.

Yana bir maxsus ovqat turi “Bo'shug” bo'lib, u sulton tomonidan elchiga qaytib



ketishga berilgan ijozat qog'ozini bilan hadya qilingan. Keyinchalik elchilarga berilgan tuhfa ham shunday nomlangan. Xuddi "Sufra" kabi. "Sufra" musofir uchun tortilgan taomni anglatadi-da, keyinchalik u teridan qilingan dasturxonga nisbatan ham qo'llanilgan. Uzoqdan mehmon bo'lib kelgan qarindoshga ketar chog'ida beriladigan tortiq taom ham "Bo'shug'ashi" deb atalgan. "Bo'shug'" ketishga ruxsat, xayrlashuv oshi sifatida ramziylashgan.

Yana bir oziq turi "Kurshak" bo'lib, u asosan tariqdan tayyorlangan. "Devon"da ta'kidlanishicha, bu ovqat mehmonlar uchun maxsus suv yoki sutda qaynatiladi. Tayyorlash jarayonida yuziga yog' qo'yilishi kurshakning mazasini yanada oshirgan, hazm jarayonini yengillashtirgan.

Ichiga uzum yoki mayiz solib tayyorlanadigan yana bir taom "Bulduni" deyilgan. Turkiylar orasida u mehmondorlik va bayram dasturxonlarida tayyorlanadigan maxsus yegulik sifatida qadrlangan.

"Uva" guruchdan tayyorlanadigan yemak nomi. Guruch avval qaynatilib, so'ng sovuq suvga solinadi, suvi to'kilib, unga shakar qo'shiladi va sovuqlik uchun yeyiladi. Uva ovqatga qo'shimcha shirinlik sifatida iste'mol qilingan, desak xato bo'lmaydi.

O'ziga xos taomlardan yana biri "Qag'ut"dir. Avval so'k qaynatilib, keyin quritilib, tegirmonda maydalanadi. So'ng yog' va shakar bilan qorilib, holva va talqon

qilinadi. U tansiq taomlardan hisoblangan.

Yana bir foydali taom nomi "Buxsi"dir. Bunda avval bug'doy qaynatiladi, keyin u bodom mag'zi bilan qo'shib, xumchaga solinadi. Ustiga arpa suvi quyiladi va shu holda achitiladi. Taomning bug'doyi yeyiladi, suvi ichiladi.

"Devon"da "Yilinchg'a ash" haqida ham ma'lumotlar beriladi. U yog'siz, tuzsiz, bir so'z bilan aytganda, "g'arib" taom sanalgan.

Muallif marosim taomlariga ham alohida e'tibor qaratadi. "Yog'" (*yo'g'*) va "Basan" aza chog'ida tayyorlanib, o'lik ko'milgandan so'ng tortiladi va uch yoki yetti kungacha davom etadi. "Qavut" (*Qag'ut*) esa yangi tuqqan xotinlar ovqati sifatida keltirilib, bunda qovurilgan tariq yog' va shakarga qorib yeyiladi. "Avzuri" – bug'doy va arpa uni aralashmasidan qilinadi va u turkiylarning kundalik dasturxonlaridan o'rin olgan. Qorinni tez ochtiradigan, yengil hazm bo'ladigan ovqat "Achurg'an", deyilgan.

Xalqimizda "Ish yurishmasa, bulamiq dandon sindirar" degan maqol bor. Atalasimon ovqat bo'lmish "Bulamiq" ham ayriqcha qadrlanib, unni sutga qorib tayyorlanadi. Bo'lamiqning "aralash-quralash, chalkash narsa" ma'nosi ham bor (*Ishni bulamiq qilib yuborib*).

Shuningdek, "Laytu" suv, qor yoki muzga solib sovutiladi va ichiga ko'katlar qo'shiladi. U asosan sovuqlik sifatida yeyiladi. Bundan tashqari, "Samduy" issiq va sovuqlikda

o'rtacha bo'lgan, ta'bga mos keladigan ovqat sifatida aytiladi.

"Devon"da keltirilgan "Kaz" sut, un va boshqa ovqatlardan tayyorlanib, qozon tagiga yopishib qoladigan qirmochni bildiradi. Shuningdek, "To'piq" (*To'piq so'njuk*) suyaklarni qaynatib tayyorlanadigan quvvatli ovqat nomi. Bundan tashqari, "Yavg'an" (*yovg'on*) go'shtsiz ovqat hisoblanib, yengil va tez hazm bo'ladigan taomni ifodalagan. Bora-bora "yavg'an" oilaning iqtisodiy ahvolini (*nochorligini*) o'zida aks ettiruvchi atama sifatida ham tarixga kirgan.

Shuningdek, "lev" – oziq-ovqat degani. Hozirgi Andijon shevasida "levash" degan so'z saqlanib qolgan bo'lib, uning mahalliy tilda hamon ishlatilayotgani bejiz emas.

Yuqorida biz "Devon"da qo'llanilgan ayrim taom nomlarini keltirdik. Aytish mumkinki, yana ko'plab manbalarda "turkiy gastronomiya"ga oid ma'lumotlar bisyor. Xususan, Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarida ham ayrim taom nomlariga duch kelamiz. Asar qahramoni O'zg'urmish hayotni hashamatli kiyim va taomlarda emas, oddiy faqirona hayotda ko'radi:

Men uchun to'n – qo'y yungi.

Ovqatim – arpa osh.

Arpa osh – oddiy, xalqona taom. U ko'proq qanoat, mehnatga tayangan hayot, soddalik timsoli.

*Olamdan yetishdi menga ish o'ngi,
Kepak oziq bo'ldi, kiyim – qo'y yungi.
Shakardan shirinroq kepek bo'tqasi,
Bu juldur kiyimim – ipaklar tengi.*

"Arpami, bo'tqami, qorningni to'yg'azsa kifoya. Ko'moch ye, go'ja ich, ammo moldek tashlanma – mijoz buziladi. Lazzatlar ketidan quvma, buning oxiri – azob".

Asarda O'gdulmish tilidan shunday misralar yangraydi:

*Odoblim, qo'lingga olmagin g'izo.
Bo'lak qarshisiga uzanma sira,
Olib yo o'zingga bo'lsa ro'para,
Qanchalik to'q bo'lma, olib turgin osh,
Odamga qarab osh yeyishar, qardosh.*

Misralardagi "go'ja" jo'xoridan tayyorlanadigan turkiy xalqlarning to'yimli va quvvatga boy taomi. "G'izo" so'zi ham yeyiladigan narsani anglatadi.

Satrlarda turkiy xalqlardagi taomlanish madaniyati, kundalik hayot va ma'naviy qadriyatlarning o'zaro bog'liqligi ko'rsatiladi, boylik va hashamat orqasidan quvishning salbiy oqibatlaridan muvaffaqiyatli qutulish beriladi.

Demak, "Devon"dagi taom nomlari turkiy xalqlarning ovqatlanish madaniyati, oddiy hayot tarzi emas, balki ularning dunyoqarashi, ma'naviy qiyofasi va qadriyatlar tizimini yaqqol ko'rsatadi. Bu atamalar orqali o'sha davr turmushi, qanoatga asoslangan hayot falsafasi va eng asosiysi, mehmondorchilik qadriyatlari aniq-tiniq namoyon bo'ladi.

Bobur ELMURODOV,
filologiya fanlari bo'yicha
falsafa doktori



Suratlar sun'iy intellekt yordamida tayyorlandi.

Islohotlar amalda

KONTRAKT BO'YICHA HARBIY XIZMATGA QABUL QILISH TARTIBI



Qurolli Kuchlarni isloh qilish sharoitida qo'shinlarga kontrakt bo'yicha harbiy xizmatga nomzodlarni saralash tizimini takomillashtirish, kadrlarni ishga qabul qilishda korrupsiyaga yo'l qo'ymaslik, mamlakatimiz mudofaasiga samarali hissa qo'shadigan, malakali va vatanparvar kadrlar sonini ko'paytirib borish eng asosiy vazifalarimizdan biri bo'lib qolmoqda.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, Qurolli Kuchlarimizning salohiyatini yanada oshirishga qaratilgan tub islohotlar davrida ilg'or xorijiy tajribalar asosida yuqori professional va intellektual jihatdan yetuk, yuksak vatanparvarlik xislatlari va jangovar ruhga ega bo'lgan, yuragida o'ti bor, ko'zi yonib turgan, halol kadrlarni tanlash, ularni tayyorlash hal qiluvchi masala hisoblanadi.

Bu borada saralash tadbirlarini o'tkazishda shaffoflikni ta'minlash, tanish-bilishchilik hamda faoliyatga aloqasi bo'lmagan shaxslarning saralash tizimiga aralashuvlarini cheklash maqsadida harbiy-kasbiy saralashning zamonaviy tizimini yaratish bugungi davr talabi bo'lib qolmoqda.

So'nggi yillarda barcha sohalarida bo'lgani kabi ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish va tizimga tatbiq qilish orqali harbiy-kasbiy saralash tizimida ham sohani optimallashtirish, xizmat faoliyatini raqamlashtirish, nomzodlarni psixologik o'rganishni zamonaviy IT imkoniyatlaridan foydalangan holda o'tkazish borasida samarali ishlar bosqichma-bosqich amalga oshirildi. Xususan:

saralash tadbirlarini o'tkazishda shaffoflikni ta'minlash, tanish-bilishchilik hamda faoliyatga aloqasi bo'lmagan shaxslarning saralash tizimiga aralashuvlarini cheklash maqsadida joriy yilga qadar mavjud bo'lgan Mudofaa vazirligi Harbiy-kasbiy saralash markazi va okrug (*birlashma*)lar harbiy-kasbiy saralash bo'limlari qisqartirilib, markazlashgan holda mustaqil faoliyat yurituvchi boshqarma sifatida qayta tashkil etildi;

ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish va tizimga tatbiq qilish maqsadida AQSh, Germaniya Federativ Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Turkiya, Belarussiya, Qozog'iston va boshqa rivojlangan mamlakatlarning yondashuv va amaliyotlari o'rganilib, tizimga joriy qilindi;

(Ma'lumot uchun: mamlakatimizda kadrlarni boshqarish sohasidagi islohotlar natijasida mavjud amaliyotga ko'ra davlat organlariga xodimlarni tanlab olish, lavozimlarga tayinlash, ularning bilim va malakalarini baholash kabi masalalar mustaqil faoliyat yurituvchi davlat xizmatini rivojlantirish hamda bilim va malakalarni baholash kabi agentliklar tomonidan amalga oshirilmoqda.

Yetakchi xorijiy davlatlarda ham harbiy xizmatga qabul qiluvchi karyera va targ'ibot markazlari alohida tarkibiy bo'linma sifatida faoliyat yuritadi. AQShda Harbiy rekruting va targ'ibot markazlari, Germaniya Federativ Respublikasida karyera markazlari, Turkiya milliy mudofaa vazirligida Kadrlarni tanlash departamenti mustaqil ravishda faoliyat yuritadi);

davlat axborot tizimlarini yaratish va qo'llab-quvvatlash bo'yicha yagona integrator "Uzinfocom" MChJ bilan hamkorlikda Mudofaa vazirligi qo'shinlariga kontrakt bo'yicha harbiy xizmatga kirish bo'yicha raqamlashtirilgan "Rekruting.mv" platformasi ishlab chiqildi;

nomzodlar yagona interaktiv davlat xizmatlari portali "my.gov.uz" orqali elektron ro'yxatdan o'tish va kontrakt bo'yicha harbiy xizmatga kirish uchun onlayn ariza berish tizimi joriy qilindi; tanlov ishtirokchilari orasida raqobat muhitini shakllantirish hamda oshkoralikni ta'minlash maqsadida mutaxassisliklar bo'yicha bo'sh lavozimlar, nomzodlarni saralash tartibi, ularga qo'yiladigan talablar hamda arizalarni qabul qilish muddati to'g'risida vazirlikning "mudofaavazirligi" rasmiy veb-sayti hamda ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalari orqali e'lonlar berish tizimi yo'lga qo'yildi;

nomzodlarga qulayliklar yaratish maqsadida Mudofaa vazirligi qo'shinlariga kontrakt bo'yicha harbiy xizmatga kirish tartibi, jismoniy tayyorgarlik me'yorlari, psixologik test savollari namunalari, saralash tadbirlarini o'tkazish muddatlari, joyi hamda sinov natijalarini yoritib boruvchi "mudofaa_vacancy" nomli rasmiy telegram kanali ishga tushirildi;

joriy qilingan yangi tizimni barcha hududlardagi aholi orasida keng targ'ib etish maqsadida "Mudofaa vazirligi qo'shinlariga kontrakt bo'yicha harbiy xizmatga kirish uchun ariza berish" xizmatiga yo'naltiruvchi 10 mingdan ortiq maxsus QR kodli targ'ibot materiallari chop etilib, barcha mudofaa ishlari bo'limlari, mahalla idoralari binolari hamda aholi gavyum bo'lgan hududlarga joylashtirildi;

nomzodlar bilan o'tkaziladigan psixologik test sinovlarida shaffoflikni ta'minlash, saralash tadbirlariga aloqasi bo'lmagan shaxslarning aralashuvi hamda tanish-bilishchilik kabi salbiy illatlarning oldini olish maqsadida psixologik test savollari Prezident huzuridagi boshqaruv samaradorligi agentligining maxsus test platformasiga joylashtirilib, kompyuter texnologiyalari orqali qabul qilinmoqda.

"Rekruting.mv" platformasi orqali Mudofaa vazirligiga kontrakt bo'yicha harbiy xizmatga kirish istagini bildirgan nomzodlarning arizalarini yagona interaktiv


davlat xizmatlari portali "my.gov.uz" orqali elektron shaklda qabul qilish, hujjatlarini to'plash, o'rganish, harbiy-kasbiy saralash tadbirlarini o'tkazish, nomzodlarni tibbiy ko'rikdan o'tish uchun yo'naltirish, ularga ruxsatnoma rasmiylashtirish, lavozimga tayinlangan nomzodlarga harbiy qism va muassasalarga yo'llanma berish kabi jarayonlar amalga oshiriladi.

Kelgusida harbiy-kasbiy saralash tizimini yanada takomillashtirish hamda fuqarolarga qulayliklar yaratish, tizimning shaffofligini ta'minlash, nomzodlarga o'z arizalarining holati, qayd etgan natijalari, saralash tadbirlari o'tkazilayotgan manzil lokatsiyalarini aniqlash imkoniyatini beruvchi "Army.gov.uz" saytini yaratish, mazkur sayt orqali nomzodlar arizalarini qabul qilish va kelib tushgan arizalarni saralash komissiyasi tomonidan qayta ishlash imkoniyatini yuzaga keltirish ko'zda tutilmoqda.

Shuningdek, nomzodlar bilan psixologik test sinovlarini onlayn, shaffof, cheklanishsiz va to'siqlarsiz, harbiy qism va muassasalarda mavjud internet tarmog'iga ulangan kompyuter sinflarida mustaqil ravishda o'tkazish maqsadida "Test.mudofaa.uz" saytini yaratish va uni "Army.gov.uz" hamda "Rekruting.mv" platformalari bilan integratsiya qilish rejalashtirilgan.


Xulosa o'rniida shuni ta'kidlash joizki, Mudofaa vazirligi qo'shinlariga nomzodlarni saralash tizimini raqamlashtirish natijasida nomzodlarga qulayliklar yaratilyapti. Sun'iy to'siqlar, sarsongarchilik va korrupsiyaviy holatlarga barham berilib, sog'lom va shaffof raqobat muhitini shakllantirilishiga, shuningdek nomzodlar orasidan har tomonlama Vataniga sadoqatli yoshlarni saralab olish orqali armiyamiz saflarini sifatli kadrlar bilan butlashga erishiladi.

Sherali SHERBUTAYEV,
Mudofaa vazirligi
Harbiy-kasbiy saralash
boshqarmasi bo'lim boshlig'i



Xotira

XAROBALAR OSTIDAN CHIQIB, FARG'ONAGA QAYTGAN QAHRAMON



Ushbu xat 1987-yilda olis Rossiyaning Bezunchuk qishlog'idan Farg'ona shahri Rizo ko'chasi 26-uyda yashovchi Qurbonali Tillayevga quroldosh do'stidan yuborilgan tabrik maktubi hisoblanadi. Ushbu xonadonda bu kabi maktub, tabriknomalarni yana ko'plab topish mumkin.

Qurbonali bundan sakson yil muqaddam fashizm balosiga qarshi kurashga otlangan Farg'onaning azamatlaridan biri edi. U nafaqat fashist gazandalariga qarshi, shuningdek yapon kvantum armiyasiga qarshi 113-alohida o'qchi brigadasi tarkibida kurashdi.

113-alohida o'qchi brigada sobiq Ittifoqning Yaponiyaning kvantum armiyasiga qarshi kurashi arafasida ikkinchi bor qayta tuziladi. 87-o'qchi korpus tarkibida kiritilgan 113-alohida o'qchi brigada polkovnik S. Zaxarov boshchiligidagi 1945-yilning avgust oyidan boshlab, Shimoliy Tinch okeani flotiliyasi bilan hamkorlikda Janubiy Saxalin operatsiyasida ishtirok etgan.

Qurbonali ota ham ushbu janglarda jon olib, jon berdi.

* * *

Uzoq Sharq. Poyonsiz ummunga tutash sohillar. Jang maydoni. Hammayoq alg'ov-dalg'ov, hamma imkon boricha, oldinga intilish payida. Dushman ham anoyi emas, osonlikcha chekinish niyati yo'q. Shu tobda dushman tomonidan otilgan granatalardan biri endigina yigirma yoshni qarshilagan farg'onalik yigitning yaqinida portladi. Portlash oqibatida u bino xarobalari ostida qolib ketdi.

Lekin buni hech kim payqamadi. Barchaning fikr-u zikri dushmanni tormor keltirib, mag'lub etishda. Bu paytda u hushsiz holatda xarobalar ostida yotardi. Biroz vaqtdan so'ng askarlar tomonidan ozod etilgan hududlarni tozalash ishlari boshlandi. Bu ishda qishloq xo'jaligi texnikalaridan ham unumli foydalanildi.

Janggohlardan birida traktor deyarli yer bilan qorishib ketgan bino xarobalaridan yerni tozalash maqsadida hududni traktor plugi yordamida haydayotgan paytda mo'jiza ro'y berdi. Traktor plugiga ilashib qolgan oddiy askar yer bag'ridan, uning ustiga chiqib qoladi.

Traktor ishini taqa-taq to'xtatdi. Barcha traktor yonida, xuddi arxeologlar

Hurmatli quroldosh, Qurbonali!

Sizni va oilangizni kirib kelayotgan bayram bilan chin qalbimdan tabriklayman.

Sizga mustahkam sog'liq, ishingizda muvaffaqiyat, hayotda baxt va saodat, ushbu bayram kunlarida esa quvonch va farog'at hamrohingiz bo'lishini tilayman.

Hurmat bilan

Fyodor Lukyanovich Kislyochenko

tasodifan noyob topilma topib olganday, behush yotgan askarning qarshisiga yig'ilgan.

Bu hodisa barchani hayratga solib qo'ydi. Axir bu vaqtgacha inson tanasi yer ostida bus-butun, mayib-majruh bo'lmay, qanday omon qolishi mumkin? Hamma hayron. Har kim o'zicha bu hodisani izohlashga harakat qilardi. Lekin biror aniq to'xtamga kela olmasdi.

Avvaliga hamma ishchilar topilgan askarni vafot etgan deb o'ylab, uni yaqinroqdagi qabristonga ko'mishga va bu haqda harbiy komendaturaga xabar berishga qaror qilishdi. Chunki askarning shaxsini, kimligini, qayerdanligini bilish kerak edi-da.

Shu maqsadda uni ohistalik bilan joyidan qo'zg'atishga, panaroq joyga olishga urina boshlashdi. Shu orada askarni ko'tarayotgan ishchilardan biri to'satdan "Он жив!" deya qichqirib yubordi. Darrov qulog'ini askarning ko'krigiga bosdi. Ko'zlarida hayrat bilan u yana "Да-да. Он жив. У него бьётся сердце" deb atrofdagilarga qaradi. Yana bahs-munozara avj oldi. Rostdan ham endi barcha ishchilar bu hodisani "haqiqiy mo'jiza" deb atay boshladi.

Vaqtini boy bermaslik uchun zudlik bilan askar haqida harbiy komendaturaga xabar berishdi, o'zini esa harbiy gospitalga yubordi. Gospitalda ham ancha vaqtgacha o'ziga kelmadi. Behush yotdi.

Hushiga kelganida esa urush batamom tugagan edi. Asta-sekinlik bilan askarlar ham navbatma-navbat harbiy xizmatdan bo'shatilib, o'z uylariga jo'nab keta boshladi. Sog'lig'i birmuncha tiklangach, uning kimligi, qayerdan ekani oydinlashdi. Batamom sog'ayganidan keyin uyiga qaytishga ruxsat berildi.

U ham urushdan o'z "nasiba"sini olib qaytdi. Uzoq vaqt yer tagida, sovuqda qolib ketgani bois sovuq o'pkasiga o'z ta'sirini ko'rsatgan edi. Shifokorlar unga bu masalaga jiddiy e'tibor berishi kerakligini uqtirdi.

U uzoq Sharqdan so'lim Farg'ona tomon oshiqib yo'lga tushdi.

Bu paytda qishloq xonadonlarida kunora o'zgacha bayram. Kimdir qo'ltiq tayoqda, kimdir o'z oyog'i bilan uyiga kirib kelmoqda. Ayrimlarida esa yig'i ovozi yuraklarni larzaga keltiradi...

Ro'zibi buvi ham yolg'iz o'g'lini urushga yuboribdiki, ikki ko'zi yo'l qarash bilan ovora. Na uyqusida, na yeb icharida halovat bor. Kun-u tun yo'l qaraydi. Urush ham tugadi. Ammo o'g'lidani darak yo'q.

Tilavoldi ota esa dardini ichiga yutib, hech narsa bo'lmagandek, hovlidagi uzumlarni parvarishlash bilan ovora. Nima ham qila olardi...

Oxiri farzandini o'ylay-o'ylay, sabri yetmasdan Ro'zibi buvi yana yig'lab yubordi. Yetmaganiga Tilavoldi ota bilan gap talashib, achchiq ustida ota uyi Uchqo'rg'onga qizini olib ketib qoldi.

– Qani endi, urush bo'lmaganda edi... Balki hammasi boshqacha bo'larmidi deb,– kundan kunga rang olib pishayotgan uzumlariga qaragancha o'ziga o'zi biroz xayol surib qoldi Tilavoldi ota. Ammo noiloj. Osmon uzoq yer qattiq. Boshga tushganini ko'z ko'radi, dedi-da ikki savatni to'ldirib uzum uzdi. Savatlarni yelkasiga ortib, Qizilqiya shahriga ravona bo'ldi.

Bu orada qishlog'iga yaqinlashib qolganini sezgan Qurbonalining yuragi hapriqib ketayotgan edi. Axir u sevikli qishlog'iga, suyuqli ota-onasining, sevimli singlisining yoniga borayotgan edi.

Qishloqqa ham yetib keldi. Shosha-pisha uyi tomon yugurdi. Ammo... uyda hech kim yo'q. Hamma yoq suv quygandek... Shu kuni qishloqda "Tilavoldi otaning o'g'li ham urushdan qaytibdi" degan yana bir yaxshi xabar tarqaldi.

Qizilqiya endigina yetib kelgan Tilavoldi ota bu xushxabarni eshitib qaytibdi uyi tomon yugurdi. Qalbida kechayotgan shukronalikni so'z

bilan ifodalab bo'lmadi. Darvozadan shoshgancha kirarkan, harbiy libosdagi o'g'il ko'ksidagi jangovar medallarni jaranglatib, u tomonga o'zini otdi.

Ota-o'g'il bir birini qo'yib yubormas... Otaning ko'zyoshi o'g'ilning yelkasini shalabbo qilgandi. Ertasiga onaizor ham yetib keldi... Chiroyli va baxtli hayot boshlandi.

Uzoq Sharqda behush holda topilgan farg'onalik bu yigit chala qolgan ta'limini to'liq yakuniga yetkazib, Farg'onadagi o'qituvchilar tayyorlash bilim yurtiga o'qishga kirdi. Ham o'qib, ham maktabda ishlay boshladi.

Bu orada Ro'zibi buvi Tilavoldi ota bilan maslahatlashib, nuridiydalarini qishloqdagi Hasan otaning qizi Ibodatxonga uylantirib qo'yishdi. Shu taqlid birin-ketin Tilavoldi otaning xonadonida ham chaqaloqlar yig'isi-yu, nabiralar o'yin-kulgisi eshitila boshladi...

Bu ikki urush – Sharq-u G'arb urushlarida qatnashgan farg'onalik Qurbonali Tillayevning hayotidan kichik bir lavha edi xolos.

* * *

Jangovar orden va medallar sohibi, urush va mehnat faxriysi Qurbonali ota salkam qirq yil ta'lim tizimida fidokorona mehnat qildi. Ustoz qutlug' nomga munosib yashadi. Ibodatxon aya bilan birgalikda farzandlarining baxt-u kamolini ko'rdi.

Garchi hozir oramizda bo'lmasa ham, Qurbonali Tillayevning Ikkinchi jahon urushida qozonilgan g'alabada katta hissassi borligi farzand-u nabiralari hamisha g'urur va iftixor bag'ishlaydi.

Abduhoshim MAHAMADOV,
Farg'ona davlat
universiteti magistranti.
Ahliddin MUHAMMADOV,
Farg'ona davlat texnika
universiteti talabasi



Harbiy atamalar: kecha va bugun

“äki oyulima: yabgu: şad at bärtem” QADIMGI O‘ZBEK HARBIY ATAMALARI

O‘zbek tilining eng qadimgi davrlaridayoq harbiy unvon va mansablarning nomlari bo‘lgan. Biroq hozir ularning bir qismi butunlay tildan chiqib ketgan, bir qismining o‘rnida boshqa so‘zlar qo‘llanadi.



VATAN HIMOYASI – eng muqaddas yumush, Vatan himoyachisi bo‘lish esa eng sharaflı kasblardan. Bugun serjant-u leytenant, kapitan-u mayor singari atovlarni eshitganimizda bu muqaddas yumushga umrini tikkan mardi maydonlar yodimizdan o‘tadi. O‘zbek xalqining shonli tarixida o‘chmas iz qoldirgan Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik, Amir Temurdek bo‘lishni orzulagan o‘g‘lonlarga havasingiz keladi.

O‘zbek tilining eng qadimgi davrlaridayoq harbiy unvon va mansablarning nomlari bo‘lgan. Til tarixi bilan shug‘ullangan olimlar alp, bayatur, čör / cörä, ön başı, yuz başı, bñj başı, tuman bāg, bašliy singari qadimgi turkiy tilga qo‘llangan terminlarni qayd qilganlar. Yuqoridagi harbiy terminlarning aksariyati bugungi tilimizda yo‘q: ularning bir qismi butunlay tildan chiqib ketgan, bir qismining o‘rnida boshqa so‘zlar qo‘llanadi, ayrimlari boshqa ma‘noni anglatadi. Masalan, ön başı, yuz başı, bñj başı so‘zlari hozirgi o‘zbek tiliga o‘nboshi, yuzboshi, mingboshi shaklida noharbiy ma‘nolarda yetib kelgan.

ÖN BAŞI/O‘NBOSHI turkiy qo‘shindagi harbiy mansab nomi bo‘lgan va “o‘n kishidan iborat kichik harbiy bo‘linma boshlig‘i”ni bildirgan. Uch xonlik davrida ham shu va shu kabi so‘zlar harbiy mansab nomi sifatida ishlatilgan. Masalan, Qo‘qon xonligida o‘nboshi atamasi o‘rnida dahboshi ishlatilgan. Keyinchalik XX asrda o‘zbek armiyasida o‘zgarishlar qilinishi natijasida bu atamadagi harbiylashgan ma‘no qo‘llanishdan to‘xtagan.

XX asrga kelib esa “brigada boshlig‘i, brigadir” ma‘nosini bildirishga o‘tgan.

YUZ BAŞI/YUZBOSHI “yuztagacha bo‘lgan askariy guruhni boshqaradigan boshliq” ma‘nosini bildirgan. H. Dadaboyevning yozishicha, Qo‘qon xonligida bir yuzboshi o‘nta dahboshi boshqaradigan askariy guruhga boshchilik qilgan. XX asrga kelib, bunday qo‘shin turlari tugatilgach, “qishloq oqsoqoli” ma‘nosini anglatadigan bo‘lgan.

BING BAŞI/MINGBOSHI atamasi “ming kishigacha bo‘lgan askarning boshlig‘i” ma‘nosini bildirgan. Mazkur atama til tarixida u yoki bu hajmdagi “qo‘shin boshlig‘i”ni bildirgan bo‘lsa, keyinchalik bu so‘zdagi harbiylashgan ma‘no unutilgan hamda “daha oqsoqoli, hokim”ni anglatgan.

TUMANBEGI atamasi “o‘n ming kishilik qo‘shin boshlig‘i” ma‘nosini ifodalagan. Bu ma‘noda tumanboshi atamasi ham qo‘llangan. Ikkalasi sinonim hisoblanadi va zamonaviy armiyada diviziya komandiriga teng keladi. Albatta, har qanday qo‘shinda tumanbegi yoki tumanboshi harbiy mansabi bo‘lmagan, chunki ayrim qo‘shinlarda askarlarning umumiy soni o‘n mingtaga ham yetmagan.



TURLI DAVRLARDA butun boshli qo‘shinga boshchilik qilgan harbiy lavozim va unvonlarning nomi turlicha atalgan. “O‘zbek harbiy terminologiyasi” kitobidagi ma‘lumotga ko‘ra, Ko‘kturk xoqonligida bu lavozimni qag‘an – davlat boshlig‘i egallagan. Demak, qag‘an atamasi ham “davlat boshlig‘i”, ham “oliy bosh qo‘mondon” ma‘nosini bildirgan.

Oliy bosh qo‘mondondan keyingi harbiy mansabdorlarni ifodalash uchun yabg‘u/jabg‘u va shad atamaları ishlatilgan. Yabg‘u va shadlar qo‘shinning o‘ng va so‘l qanotlariga sarkardalik qilgan. (*O‘zbek harbiy terminologiyasi*, 9-bet).

“SHAD” ATAMASI harbiy unvon ma‘nosida qadimdan qo‘llanib kelgan. Ammo jangda shuhrat qozongan har qanday iste‘dodli sarkardaga bu lavozim berilmagan. Bu unvon qag‘an – xoqon oilasidan bo‘lgan jasur sarkardalar uchun joriy qilingan. (*O‘zbek harbiy terminologiyasi*, 10-bet). Masalan, Bilga qag‘an shad unvonini olganligi tarixiy kitoblardan ma‘lum. Bu unvonni olish katta sharaflı bo‘lgan, ayni paytda, unvon egasiga katta imtiyozlarni ham bergan, xalqning sardoriga, hukmdorning o‘sha yurtdagi noibiga aylangan. M. Do‘stmurodov “Mo‘yun Cho‘r” nomli qadimiy bitikdan keltirgan quyidagi parchada xoqonning o‘g‘illari tardush va to‘las qabilalariga yabg‘u (*yabyu*) va shad (*şad*) etib tayinlanganligi ma‘lum bo‘ladi: “äki oyulima: yabyu: şad at bärtem

– ikki o‘g‘limga yabg‘u va shad unvonini berdim. (*O‘rxun-Yenisey bitiktoshlaridagi harbiy terminlar tadqiqi*, 63-bet).

G‘arbiy Ko‘k turk xoqoni Ishbara hukmdorligi davrida o‘zining qo‘l ostidagi yurti o‘n qismga bo‘lgan va bu qismlarning har birini aymoq deb atagan. Mazkur aymoqlarga tayinlangan amaldorlar shad deb yuritilgan. Bu yerlarda shadlar ham davlat ishlarini boshqargan, ham harbiy sohaga bosh bo‘lgan. (*O‘zbek harbiy terminologiyasi*, 11-bet).



TURKIY QO‘SHIN tarkibida harbiy maslahatchi lavozimi ham bo‘lgan. Ayg‘uchi shunday atama bo‘lgan. “O‘rxun-Yenisey” yodnomalarida To‘nyuquq ismli kishi harbiy maslahatchi bo‘lganligi yozib qoldirilgan. Yirik sarkardalar esa subashi unvoni bilan taqdirlangan. (*O‘zbek harbiy terminologiyasi*, 11-bet). “Qo‘shin boshlig‘i” ma‘nosini bildiradigan subashi atamasi turkona qo‘shma so‘z yasash qolipida hosil qilingan, ya‘ni su hamda bashi so‘zlarini qo‘shib yasalgan. Su so‘zi qadimgi turkiy tilda “qo‘shin” manosi anglatgan. Bashı so‘zi esa “boshliq, boshchi” degan ma‘noni bildiradi. Bugungi kunda bunday qolipda so‘z yasalganda bashi so‘zi boshi shaklida ishlatiladi. Masalan, ishboshi, davraboshi kabi.

Yorqinjon ODILOV,
filologiya fanlari
doktori, professor

Quflug' sana



HURLIK TIMSOLI, EZGULIK VA TINCHLIK RAMZI

Davlat ramzlari har bir xalqning mustaqilligi, ozodligi, tinchligi va barqarorligi timsoli hisoblanadi. Lekin dunyoda birorta ramz yoki timsol davlatni, millatni jahonga Davlat bayrog'idek tanita olmaydi. Binobarin, milliy davlatchiligimiz tarixining barcha davrlarida davlat ramzlari, xususan bayroq Vatan timsoli sifatida muqaddas sanalgan. Buyuk bobomiz Amir Temur ham davlat ramzlariga jiddiy e'tibor qaratganini jang maydonida bir lashkar omon qolsa ham, Vatani bayrog'ini baland tutishiga farmon berganidan bilsa bo'ladi.

Bugun ham Vatan bayrog'i deganda, ko'z oldimizda butun bir mamlakatning timsoli, jahonning siyosiy-ijtimoiy xaritasidagi qiyofasi gavdalanadi. Bayroq bizni ulug' maqsadlar tomon boshlovchi buyuk mash'aladir. U o'zida butun O'zbekiston xalqining asriy orzu-istaklari, g'ayrati va shijoatini, xalqimizga xos mehmondo'stlikni mujassam etgan.

Mag'rur hilpirayotgan bayrog'imiz yurtimizda hukm surayotgan tinchlik-obodlik, millatlararo totuvlik, qut-baraka, biz erishayotgan bemisl yutuqlar va kelajakka bo'lgan mustahkam ishonch ramzi sifatida qalbimizga tuganmas iftixor bag'ishlaydi. Farzandlarda bayroqqa – Vatanga mehr-muhabbat tuyg'ulari shakllanadi.

18-noyabr – Davlat bayrog'i qabul qilingan kun Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo'shinlari qo'mondonligida

ham keng nishonlandi. Mazkur tadbirga nufuzli xalqaro sport musobaqalarida yurtimiz bayrog'ini baland ko'tarayotgan og'ir atletika bo'yicha Osiyo, jahon va Olimpiada chempioni Ruslan Nuriddinov hamda dzyudo bo'yicha Osiyo va jahon chempioni, 2024-yilda Parij shahrida o'tkazilgan yozgi Olimpiada o'yinlari bronza medali sohibi Muzaffarbek To'raboyev kabi taniqli sportchilar jalb etilganida ham ramziy ma'no bor. Zero ularning xalqaro maydonlarda erishayotgan yutuqlari qalbimizni vatanparvarlik tuyg'usiga to'ldiradi. O'zbekistonimiz bayrog'i bilan g'urur va iftixorga to'la manzaralar bizni fidoyilikka, vatanparvarlikka, yangi marralarga chorlaydi.

Dastlab mehmonlar DXX Chegara qo'shinlari muzeyida bo'lib, u yerda saqlanayotgan eksponatlar bilan yaqindan tanishdi.

Shundan so'ng Chegara qo'shinlari qo'mondonligi klubida tadbirning asosiy qismi boshlandi.

Unda so'z olgan sportchilar Vatanimiz g'ururi bo'lgan davlatimiz bayrog'i haqida o'z mulohazalarini bayon etdi. Videokonferensiya shaklida o'tkazilgan tadbir davomida yosh harbiy xizmatchilar o'rtasida mavzu bo'yicha savol-javob o'yini tashkil etildi. Ishtirokchilar bayroqlarning yaratilish tarixi, qadimda jang maydonlariga nima sababdan bayroqlar olib chiqilgani, jangovar bayroqning odatiy bayroqdan farqi kabi qiziqarli savollarga javob berib, faol ishtirok etdi.

Shundan so'ng tadbirning badiiy qismiga navbat berildi. Xonandalar ijrosidagi vatanparvarlikni targ'ib qiluvchi kuy va qo'shiqlar davraga bayramona shukuh ulashdi. Ayniqsa, taniqli xonanda Marat Hakimovning

“Bayrog'ing boshingda hilpirar” nomli qo'shig'ini barcha yig'ilganlar jo'rlikda ijro etdi.

Ha, hozirgi tinch va osoyishta davrda davlatimiz bayrog'i mustaqillik va milliylikni o'zida aks ettirib, Vatanimiz hududida viqor bilan hilpirab turishi har birimizga quvonch va faxr baxshida etadi. Albatta, bu har bir vatandoshimizda yurtga bo'lgan cheksiz mehr va sadoqatning yorqin namunasini namoyon etadi. Zero davlat ramzlari ona Vatan kabi aziz va muqaddas bo'lib, unda xalq tarixi, buguni hamda kelajagi o'z aksini topadi. Xulosa qilib aytganda, davlatimiz bayrog'i xalqimiz or-nomusini uyg'otuvchi beqiyos kuch sifatida ozodlik, Vatanni sevishtga da'vat etib, milliy g'urur, fidoyilik va vatanparvarlikni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mayor Hamza YOQUBOV,
DXX Chegara qo'shinlari



Ezgulik

“YASHIL MAKON” LOYIHALARI DAVOM ETMOQDA

O'simliklar dunyosi hayot uchun zarur kislorodning asosiy manbaidir. Har bir insonning kislorodga bo'lgan ehtiyojini qondirish bugungi ekologik o'zgarishlar davrida dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Bugungi kunda o'lkamiz bo'ylab hasharlar, ko'chat ekish aksiyalari har qachongidan ham qizg'inroq tus oldi. Ta'kidlash joizki, obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish ishlarida harbiylar ham faol qatnashmoqda.

Xususan, Mudofaa vazirligiga qarashli qo'mondonlik boshqaruv apparatida harbiy xizmatchilar tomonidan “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida turli xildagi mavsumiy bo'lgan manzarali va dekorativ daraxt ko'chatlari ekildi.

Loyiha davomida barcha toifadagi harbiy xizmatchilar tomonidan harbiy shaharcha hamda qo'mondonlikka yondosh bo'lgan hududlarning yerlariga ishlov berilib, obodonlashtirish ishlari ham olib borildi.



Respublikamiz bo'ylab qo'mondonlik tasarrufidagi harbiy qismlarda yurt himoyachilari tomonidan hududlarda daraxtlar va yerlarga ishlov berilib, ona tabiatimizni asrab-avaylash choralari ko'rilmogda.

TOQQQ Matbuot xizmati



Davra suhbatlari



OILA — MUQADDAS DARGOH

Oila eng asosiy tarbiya makonidir. Shuning uchun ham jamiyatning ustunlari bo'lgan ayollar sog'lom fikrli, Vatanimiz taraqqiyoti uchun iqtidorli yoshlarni tarbiyalashdek mas'uliyatni his qilmoqlari zarur.

Shu munosabat bilan Mudofaa vazirligi qo'shinlarida harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolari bilan tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Jumladan, Qoraqalpog'iston Respublikasining olis hududi hisoblangan Qo'ng'iro't tumanida joylashgan harbiy qismda “Oila – muqaddas dargoh” mavzusida harbiy qism harbiy xizmatchilari va ularning oila a'zolari bilan profilaktik hamda ijtimoiy-psixologik davra suhbatlari o'tkazildi.

Tadbirida harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolariga “Internetdagi yot g'oyalarga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirishning dolzarb

masalalari”, “Ijtimoiy tarmoqlardan to'g'ri foydalanish”, “Is gazidan zaharlanish va elektr tokidan jarohatlanishning oldini olish” hamda “Shukronalik tuyg'usi” mavzularida ijtimoiy-profilaktik videoroliklar namoyish etildi.

Samimiy va ochiq muloqot tarzida o'tkazilgan tadbir davomida harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolari o'zlarini qiziqtirgan savollariga soha mutaxassislaridan batafsil javob oldi.

Tadbir so'ngida respublika miqyosida o'tkazilgan “To'maris izdoshlari” ko'rik-tanlovida faxrli o'rinlarni qo'lga kiritgan ayol harbiy xizmatchilar e'tirof etildi.

TOQQQ Matbuot xizmati

Ma'naviyat

UCH AVLOD UCHRASHUVI

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetida talabalarning ma'naviy-axloqiy yetukligini oshirish, ularni vatanparvarlik, yurtga sadoqat, milliy g'urur, fuqarolik mas'uliyati va ijtimoiy faollik ruhida tarbiyalash maqsadida “Uch avlod uchrashuvi” deb nomlangan ma'naviy-ma'rifiy tadbir tashkil etildi.

Uchrashuv yoshlar bilan turli avlod vakillarini bir maydonda jamlab, ularning hayotiy tajribasi va saboqlarini bo'lishish orqali talabalar ongida Vatanga muhabbat, el-yurt ravnaqi uchun mas'uliyatli bo'lish fazilatlarini mustahkamlashga qaratildi.

Tadbirida Ichki ishlar vazirligi akademiyasi xodimi iste'fodagi general-mayor Tohir Mullajonov, mudofaa vaziri maslahatchisi, vazirlik Faxriylar ishlari markaziy kengashi raisi iste'fodagi polkovnik Abubakr Navro'zov, shuningdek mudofaa va huquqni muhofaza qilish sohalarida ko'p yillik tajribaga ega bo'lgan bir qator mutaxassislar hamda faxriylar ishtirok etdi.

Uchrashuv davomida faxriylar o'z xizmat faoliyati davomida duch kelgan sinovlar, mas'uliyatli qarorlar, Vatan ravnaqi va xavfsizligi yo'lida ko'rsatgan fidoyiliklari haqida batafsil so'zlab berishdi. Shuningdek, bugungi globallashuv va tezkor axborot almashinuvi davrida yoshlar ongiga salbiy ta'sir ko'rsatishga urinayotgan yot g'oyalar, diniy-ekstremistik oqimlar, radikal guruhlar va axborot xurujlari haqida ogohlantirishlar

berilib, ularga qarshi kurashishda ogohlik, hushyorlik va mustaqil fikrlashning ahamiyati ta'kidlandi.

Tadbir davomida faol ishtirok etib kelayotgan bir guruh iqtidorli talabalar tashakkurnomalar bilan taqdirlandi. Shuningdek, universitetning ijtimoiy faolligi bilan ajralib turadigan va yoshlar o'rtasida tartib-intizom, jamoat xavfsizligi hamda ijobiy muhitni mustahkamlashga xizmat qilayotgan “UWEDFORCE” talaba jamoasiga rasmiy xizmat guvohnomalarini topshirish marosimi ham o'tkazildi. Bu jarayon yoshlarning universitet hayotidagi faolligi, tashabbuskorligi va mas'uliyatli pozitsiyasini yanada mustahkamlashga xizmat qildi.

Tadbir so'ngida talabalar o'zlarini qiziqtirgan savollar bilan mutaxassislariga murojaat qildi. Uchrashuv samimiy, ochiq muloqot ruhida o'tib, talabalar qalbida yuksak motivatsiya, vatanparvarlik ruhini kuchaytirish va kelgusi faoliyatga mas'uliyat bilan yondashish tuyg'usini shakllantirdi.

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti Matbuot xizmati



Ekologiya

IFLOS HAVO

KO'ZGA KO'RINMAS XAVF

Erta tongda quyosh bilan birga uyg'onib, tabiatning sof nafasidan bahra olgingiz keladi. Bir piyola issiq choy ichib, osoyishtalikka cho'mib, yurakka yaqin manzaralarga to'yib qaragingiz keladi-yu, ammo...

Keyingi vaqtlarda poytaxtimizning "o'pkasi" kundan kunga zaiflashib borayotganga o'xshaydi. Shahar osmonidagi bir paytlar musaffo bo'lgan havo bugungi kunda har bir nafasda og'irlik kasb etayotgandek. Aholi esa "toza havo" deb atalgan ne'matdan Kundan kunga mosuvo bo'lib bormoqda. Nafaqat bolalar, balki kattalar orasida ham allergiya, nafas yetishmovchiligi kabi xastaliklarning ko'payib avj olayotgani – achchiq haqiqat.

Joriy yilning 12-oktabr kuni Toshkent shahri yana havosi eng iflos shaharlar reytingida dunyoda birinchi o'ringa chiqib oldi. IQAir portali ma'lumotlariga ko'ra, shu kuni 1 kub metr havoda 305,5 mikrogramm chang mavjud bo'lgan, bu esa inson organizmi, ayniqsa nafas olish tizimi uchun jiddiy xavf zanjirini keltirib chiqarishi ta'kidlandi. Shundan kelib chiqib, o'pkasida muammosi bor fuqarolar, qariyalar va bolalarga ko'chada yurganda niqob taqish, derazalarni yopiq tutish, ochiq havoda uzoq vaqt bo'lmaslik tavsiya etildi. 13-oktabr kuni esa holat biroz yaxshilanib, havodagi PM – 2,5 dispers zarralarining konsentratsiyasi 88 mkg/m³ ga tushdi. Ammo baribir havo sifati inson salomatligi uchun "zararli"ligicha qoldi. Nihoyat, 4-noyabr kuni respublika bo'ylab yog'gan yomg'ir Toshkent havosini g'uborlardan tozaladi. IQAir portali ma'lumotlariga ko'ra, shu kuni poytaxt havosida PM – 2,5 dispers zarrachalari miqdori JSST tavsiya qilgan me'yordan ancha pastga tushdi.

Ammo oradan bir necha kun o'tgach, yana ahvol sekin yomonlasha boshladi. Kechki payt tashqariga chiqsangiz, havodagi mayda chang zarralari dimog'ingizga urilib, nafasingizni tortayotganini his qilaisiz. Go'yo shamol ham o'zi bilan og'ir tutun va g'uborni ko'tarib kelayotgandek, mana shu havo bilan vujudingizga kirgan ko'zga ko'rinmas qop-qora kuch esa yuragingizni qisib qo'yayotgandek. Tanangizda ham charchoqni his qilaisiz. Go'yo ruhingizda osoyishtalik yo'qolgandek tuyuladi. Nega? Chunki iflos havo oqimi nafaqat o'pkani, balki qon aylanishini, yurak faoliyatini, hatto insonning xayol va kayfiyatini ham zaiflashtira boshlaydi. Qarabsizki, qon bosimi oshishi yoki tushishi, bosh og'rig'i, uyqusizlik kuzatiladi. Bolalarda bu holat yanada tez namoyon bo'ladi: nafas qisishi, allergiya, tez-tez kasallanish bularning barchasi iflos havoning bolalarda qoldirayotgan mudhish belgilari sanaladi.

"The Lancet Planetary Health" jurnalida e'lon qilingan global o'lim va atrof muhitning ifloslanishiga oid tadqiqotga ko'ra, har yili 9 mln. ga yaqin odam havo, tuproq va suv ifloslanishidan nobud bo'lmoqda. Shuning uchun ham tadqiqotchilar havoning ifloslanishini kasallik va erta o'limga olib keluvchi eng katta ekologik xavf, deb atamoqda. Olimlarning hisob-kitoblariga ko'ra, dunyoda har oltinchi o'limga ekologiyaning ifloslanishi asosiy sabab bo'lmoqda. Asli bu bir mamlakat yoki bir mintaqa muammosi emas, balki butun insoniyatning ko'z o'ngida kechayotgan jonli fojiaadir.

Shu o'rinda savol tug'iladi: yuqoridagidek holatlarning oldini olish va shahar havosini yaxshilash uchun nima qilish kerak?

Buning uchun, birinchi navbatda, katta shaharlarda olib borilayotgan qurilish ishlarini tartibga solish lozim. Zero undan chiqayotgan chang havoga ko'tarilib, ifloslanish darajasini oshirmoqda. Buning oldini olish uchun esa qurilish olib borilayotgan obyektlarda chiqindilarni changitmasdan olib ketadigan maxsus texnikalardan foydalanish kerak. Chang-to'zonni bostirish uchun yerlarni namlantirib turish darkor. Misol uchun, rivojlangan davlatlarda binoning tepa qavatida qurilish qilayotgan odam chiqindilarni changitmasdan pastga tashlash uchun maxsus quvurlardan foydalanadi. Bu usul atrof-muhitga zarar yetkazmasdan qurilishni amalga oshirish imkonini beradi. Qolaversa, yon-atrof changib, to'zib ketishining oldi olinadi. To'g'ri, qurilish sohasi tartibga solinishi uchun loyihalar, qonun loyihalari ishlab chiqilmoqda, hatto amalda bajarilgandek bo'ldi. Ammo mutasaddilarning "Qurilish sohasi tartibga solinadi, qonunni buzgan kompaniyalar jarimaga tortiladi" degan gapi gapligicha qolib ketmoqda, nazarimda.

Yana havo ifloslanishining oldini olish uchun hududlarda "yashil bog'lar"ni, yashillikni ko'paytirish kerak. To'g'ri, "Yashil makon" umummilliy

loyihasi doirasida har yili millionlab daraxt ekilyapti, deyishingiz mumkin. Biroq loyiha doirasida o'tqazilgan ko'chatlarning ko'pi o'tgan yillarda mas'ullarning e'tiborsizligi va suvsizlikdan qurib qoldi. Amal olganlari ham chalajon bo'lib, rivojlanib keta olgani yo'q.

Bundan tashqari, shahar havosining ifloslanishida avtomobillarning hissasi ham ancha katta. Tadqiqotlar shuni ko'rsatganki, birinchi o'rinda toza havoni zavod va fabrikalar eng ko'p zararlayotgan bo'lsa, ikkinchi o'rinda avtomobillardan chiqayotgan zaharli gazlar ifloslayapti. Ayniqsa, O'zbekistonda atmosferaga jami zararli tashlanmalarning 58 foizi (1,4 mln tonna) avtotransportlar ulushiga to'g'ri keladi. Bunda Toshkent shahri yetakchilik qilmoqda: 93 foiz (397 ming tonna). Avtotransport vositalarining yildan yilga ko'payib borayotganini hisobga olsak, muammoning naqadar jiddiy tus olayotgani oydinlashadi.

Milliy statistika qo'mitasining 2023-yilning yanvar oyida bergan ma'lumotlariga ko'ra, Toshkent shahrida jismoniy shaxslarga tegishli jami avtomobillar soni 562,1 mingtani tashkil etadi. Bunga qo'shimcha ravishda esa har kuni 260 mingdan ziyod avtomobil viloyatlardan poytaxtga kelib-ketadi. Bu degani, hozir poytaxtda 700-900 mingdan ortiq avtotransport vositasi harakatlanayapti.

Shuningdek, har yili avtotransport vositalarining ekologik holati yuzasidan davlat ekologik nazoratini olib borish maqsadida respublika miqyosida "Toza havo" oyligining o'tkazilib kelinayotgani ham avtomobillar ekologiyaga naqadar zarar keltirayotgani isbotlangan.

Joriy yil aprel-may "Toza havo" oyligi davomida jami 40 050 ta avtotransport vositasi qamrab olingan va shundan 586 tasida atmosfera havosiga tashlanayotgan zararli gazlar miqdori me'yordan ortiq ekani aniqlangan.

Ko'rinib turganidek, poytaxtda avtomobillar bilan bog'liq vaziyat yaxshi emas. Uzoq yillar davomida

ko'chalarda avtomobillar sonining ortishi, tirbandliklar muammosini bartaraf etish chorasi sifatida hukumat va shahar hokimligi mutasaddilari ko'proq yo'llar qurish va ularning o'tkazish imkoniyatini oshirish haqida bosh qotirmoqda. Ammo yo'l o'tkazuvchanligini oshirish uchun kengroq yo'llar qurish samarali yechim emasligi hammamizga ma'lum.

Bu masalaga jiddiyroq yechim topish vaqti allaqachon keldi. Negaki shaxsiy avtomobillar va yo'lovchilar soni tobora ortib borayotgani bois transport masalasi Toshkent shahrining eng og'riqli muammolaridan biriga aylanib ulgurdi. Ayniqsa, ishlab chiqarilganiga 30-40 yil bo'lgan avtomobillarning kamaymayotgani, ulardan ajralib chiqayotgan zararli gazlar mavjud vaziyatni tobora murakkablashtirmoqda.

Shunday ekan, kech bo'lmasdan, muammolarning oldini olishimiz, atrof-muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishimiz, nafaqat cho'l hududlarida balki "dom"lashib borayotgan shaharlarda ham "yashil hudud"larni ko'paytirishimiz, borini esa qadriga yetishimiz kerak.

Birgina Xitoyni oladigan bo'lsak, dunyodagi eng katta Gobi cho'lining kengayishini sekinlashtirish, qum bo'ronlarini kamaytirish va cho'llashgan hududlarda qishloq xo'jaligini tiklash maqsadida cho'lining 45 ming kvadrat kilometrini yashillik bilan qoplagan. Ularning ushbu tashabbusi bugungi kunda ham davom etmoqda.

Shunday ekan, imkonsiz narsaning o'zi yo'q. Barchasi o'zimizning harakatimizga bog'liq. Vatanimiz kelajagi uchun chin dildan, harakat qilsak, bizni kutib turgan "ekologik fojialar"dan o'zimizni qutqarishimiz mumkin. Shunday ekan, vaqt borida etagimizni yig'ishtirib, ekologik madaniyat bu shunchaki gap emasligini anglab yetishimiz lozim. Yuqorida aytib o'tilganidek, tabiatning "ogohligi"ga barmoq orasidan qaramaylik.

**Leytenant
Mansurbek JABBOROV,
"Vatanparvar"**



Keling, kitob o'qiymiz!



“...HAR LAHZA YO‘LLAR OCHILUR”

Taniqli ijodkor Nargiza Asad ko'p bor hayratlarimga sabab bo'lgan. Nafis ijodining maftuniman, tabiiy, ammo uning odamlarni bilishi, tanishi meni lol qiladi. Hamkasblarimizdan biri she'r yozadi. Ba'zi shoirlikka da'vogarlardan farqli ravishda o'tkir qalami bor. Buni hamma ham bilavermaydi. Yaqindagina jamoamizga qo'shilgan Nargiza Asad esa uni bir qarashda tanidi:

– Shu inson shoir, a?
– Ha, she'rlarini o'qiganmisiz?
– Yo'q, o'qimaganman.
– Unda shoirligini qayerdan bildingiz?
– Ko'zlaridan, shoirning ko'zlari aytib turadi, – degan edi mayin tabassum bilan.
– Himm, – hayratim shu bir “himm”da mujassam bo'lgani bilan oradan yillar o'tsa-da, ijodkor ayolning shoirlarni taniy olish qobiliyatini hech unutmadi. Nazarimda, uning shoir yuragi taniydi. Shoirning yuragi ham boshqacha ekan-da!

Kitobsevarman. Adabiyotsiz dunyoni tasavvur ham qilib bo'lmaydi. Sevib o'qigan asarlar ta'siridan chiqishim qiyin. Bunday kitoblarni boshqalarga ham tavsiya qilaman. Yaxshi she'rlar o'qishni, tinglashni yoqtiraman, o'zinga yoqqan misralarni takrorlab yuraman. Ayrimlarini qachon, qanday yod olganimni unutaman, biroq tilimda aylanaveradi. Shunday bo'lsa-da, men shoirdan bir misra o'qimay turib, uni taniy olmayman.

Ijodkor Bobur Elmurodov bilan bir necha yillardan beri bir jamoada ishlashimizga qaramay, she'r yozishini bilmas ekanman. Jamoa uni istiqboli porloq jurnalist sifatida katta umidlar bilan qabul qilgan. U bilan qariyb bir vaqtda xizmatni boshlagan Islomjon Qo'chqorovning she'rlarini eshitganmiz, momoguldurakdek guldirab, she'rlar o'qiydigan Bek Ali ijodining oshig'i bo'ldik. Negadir...

Yaqinda Bobur Elmurodning “Tajohul ul-orif” kitobini tavsiya qilishdi. Kitob shu yili O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining “So'zmunchoq” loyihasi doirasida “Adabiyot” nashriyotida chop etilibdi. She'riyat ixlosmandlari uchun ajoyib tuhfa. Bu uning ikkinchi kitobi.

O'qiymiz: “Ko'zmunchoq! Tilimizda shunday samimiy so'z bor. Ota-bobolarimizning ko'zga yaqin, kelishgan farzand-u nabiralari qaratiladigan “Ko'z tegmasin!” iborasini ko'p eshitganmiz. Ehtimol, shu so'zdan ilhomlanib, O'zbekiston xalq shoiri Sirojiddin Sayyid ham kitoblaridan birini “So'zmunchoq” deb nomlagandir.

Adabiyotimizda ham ana shunday o'sib kelayotgan ko'rkam nihollarning

bog'ga aylangulik bo'yi bor. Bu bog'larning hosili mo'l bo'lishini niyat qilib, bir turkum kitoblarni “So'zmunchoq” rukni ostida nashr etishni reja qildik.

Bilasizmi, kitobga yozilgan so'zboshining ham salmog'i katta. Aynan shu so'zboshini ko'rib, kitobni qiziqish bilan varaqlagan yolg'iz men bo'lmasam kerak. Bobur Elmurodning kitobiga so'zboshi O'zbekiston Qahramoni, xalq shoiri Abdulla Oripovdan ekan. Bu esa so'zsiz o'quvchini o'ziga tortadigan holat. Ulug' shoirimizning yozganlaridan **o'qiymiz:** “... asar o'quvchini o'z mazmuni, go'zalligi, mahorati bilan maftun eta olsin. Hech bo'lmaganda, uning didini qanoatlantirsin.

Ukamiz Bobur Elmurodning she'rlarini o'qib, juda ta'sirlandim. Goho shoirning bitta she'ri muvaffaqiyatli chiqib, qolganlari susayib ketgan bo'lishi ham mumkin. Shoir ukamizning yozganlari hozircha unaqa emas.

Bobur Elmurod mana shu mas'uliyatni zinhor unutmasin, deymen”.

Keling, endi kitobdan parchalar o'qiymiz, asli she'rdan parchalar keltirish ma'qul emas, bu ham bo'lsa, maqsadimiz “Tajohul ul-orif” haqida o'quvchilarga tezroq xabar berish, tavsiya qilish uchun.

O'qiymiz:

“Bir tomchini ko'rdim – mo'jiza!
Guldan gulga o'tar edi sof.
Tomchichalik bo'lolmadim men,
Shu bog'chalik bo'lmadi atrof.

*Qanday go'zal yer, osmon – havo,
Qara, shafaq qanday qizargan?
Eh, odamlar yashamoqlikning
Hadisini esdan chiqargan...”*

Yaqinda yog'gan yomg'ir yodingizdami? Bu yomg'ir bizni uzoq kuttirdi. Kuzgi Toshkent yashnab ketganini siz ham sezdingizmi? Yomg'ir ham sog'intirar ekan. Tomchilarga termilaman, ovozidan ruhim tozarib, sevinib atrofimga qarayman. Yomg'ir, shamol, parpirab uchayotgan yaproqlar... Yonimdagi qiz telefondan kuz uzmaydi. Uni telefondan chalg'itib, “lahzalarni tutib qolsang-chi”, degim keladi, ammo ko'nglimni avaylayman, bir so'z bilan vayron bo'lmasin.

O'qiymiz:

“Shu tuproqdan uzilsa ko'nglim,
She'r yozishdan qolarmi ma'ni?
Ular kabi yashay olmasam,
Nimani ham bildim, nimani?”

Shu aziz tuproq ko'p xokisor. Insonlarni shoir qiladi.

Aziz o'quvchi, kaminangiz she'rlarni tahlil qiluvchi adabiyotshunos emas. Shunchaki adabiyotni sevaman, meni mutaassir etgan, millionlar hayrati, e'tirofiga sazovor bo'lgan asarlarni sizga tavsiya etib kelaman. Bobur Elmurodning “Tajohul ul-orif”i ham ko'plar qalbidan joy olsa, ajab emas.

Shoirning eng sara she'rlarini o'zi emas o'quvchilari tanlaydi. “Tajohul ul-orif” shunday she'rlar sirasiga kiradi.

O'qiymiz:

“Yodimdan o'chmaydi hech
qachon bu hol,
Muallim yelkamga asta qo'ydi qo'l.
Hech kimga bildirmay,
hech kimga, alhol,
Cho'ntagimga buklab soldi
o'n so'm pul.
O'ttiz qora ko'zga izza bo'lish, voh,
Sezdingiz, ko'nglimni
yomon o'rtardi.
Do'stlar, urib turgan yuragim guvoh,
Bir inson o'ksishdan meni qutqardi”.

Ayrim so'z sinchilarining fikrlariga ko'ra, she'rni tushuntirib berib bo'lmas ekan. Bu she'r mazmunini sizga aytib bersam, uni juda jo'nlashtirib yuborgan bo'laman. Yaxshisi, o'zingiz o'qing, ko'ngilni tozartiradigan bir she'r, ishonang!

“Leytenant G'aniyev
monologi”dan **o'qiymiz:**

“Ortimda xalqim bor – umidvor,
Qon bo'lgan libosim – kafanim!
Ortimda Munavvar onam bor!
Ortimda – munavvar Vatanim!

Orqaga qaytmaymiz, Ma'rufjon!
Orqaga yo'l yo'qdir qaytgulik.
Tur, olg'a boramiz, Qahramon!
Oldinda hayot bor mangulik”.

O'sha jangchining qoni tekkan kiyimini ko'rganman. Ha, ha, Marg'ilonda, onasi Munavvar aya ko'rsatgan edi: “O'g'limning qoni tekkan...” deya avaylab silagan edi. Ma'rufjonning keksa onasini ziyorat qilish sharafiga nasib etgan. Mangulik hayotni tanlagan qahramonimiz Qahramon...

Vatan uchun aziz jonidan kechgan navqiron qahramonlarga bag'ishlangan bu she'r ostida talaygina izohlar bor. Mazkur izohlar sizni she'rni yanada chuqurroq anglashga chorlaydi.

Shu yerda so'zimizni shoirning quyidagi to'rtligi bilan muxtasar qilamiz:

“Kezaman, har lahza yo'llar ochilur,
Uzaman, har lahza gullar ochilur.
Meni duo qilib har kun qishloqda,
Bir juftgina qadoq qo'llar ochilur...”

She'riyat go'zal va sirli olam, huzurli mutolaalar tilagi bilan

Inobat IBROHIMOVA,
“Vatanparvar”



O'zbekiston chempionati

ENG YOSH MERGANLAR
ANIQLANDI

Buxoro shahrida "Vatanparvar" tashkiloti tomonidan 2008-yilda va undan keyin tug'ilgan yoshlar o'rtasida sportning pnevmatik quroldan o'q otish turi bo'yicha O'zbekiston chempionati musobaqasi o'tkazildi.

Unda respublikamizning turli hududlaridan kelgan 100 ga yaqin sportchi 10 metrlik masofadan pnevmatik miltiq va pistoletlardan nishonga o'q uzdi.

Qizg'in va murosasiz kechgan kubok musobaqasi quyidagi natijalar bilan yakunlandi:

**Miltiqdan o'q otish bo'yicha
"VP-6" sinfida:****O'g'il bolalar o'rtasida:**

1-o'rin: E'zozbek Rahimjonov

(Namangan v.);

2-o'rin: Jamol Saidaliyev (Toshkent v.);

3-o'rin: Zafar Sharopov (Navoiy v.).

Qizlar o'rtasida:

1-o'rin: Sabina Tolibjonova (Farg'ona v.);

2-o'rin: Durdona Mavlonova

(Namangan v.);

3-o'rin: Zuhra Qurbonaliyeva

(Toshkent v.).

**Pistoletdan o'q otish bo'yicha
"PP-6" sinfida:****O'g'il bolalar o'rtasida:**

1-o'rin: Rafet Kerimov (Namangan v.);



2-o'rin: Muhammadyusuf Haydarov

(Sirdaryo v.);

3-o'rin: Salohiddin G'ofurov (Toshkent v.).

Qizlar o'rtasida:

1-o'rin: Irina Tarasova (Namangan v.);

2-o'rin: Nodirabegim Orifjonova

(Farg'ona v.);

3-o'rin: Ferangiz Erkinova (Buxoro v.).

Jamoa hisobida:

1-o'rin: Namangan viloyati;

2-o'rin: Toshkent viloyati;

3-o'rin: Farg'ona viloyati jamoalari.

Musobaqaning yopilish marosimida g'oliblik va yuqori natijalarni qo'lga kiritgan sportchilar "Vatanparvar" tashkilotining diplom, esdalik sovg'alari hamda kubogi bilan taqdirlandi.

Hamkorlik

O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti markaziy kengashi raisi Husan Botirov boshchiligidagi bir guruh rahbar xodimlar xizmat safari bilan Xitoy Xalq Respublikasida bo'ldi.

XITOIY KOMPANIYASI BILAN
HAMKORLIK KENGAYTIRILMOQDA

O'zbekistonlik vakillar "Foton

International Trade Co., Ltd."

kompaniyasining taklifi bilan Pekin

shahrida "Foton Global Partners Conference

- 2026" xalqaro konferensiyasida ishtirok

etdi. Konferensiyada "Foton" rusumidagi

transport vositalarini ishlab chiqish va

ularni hamkor kompaniyalarga realizatsiya

qilish istiqbollari kabi masalalar muhokama

qilindi.

Konferensiya doirasida turli davlatlardan

kelgan ishtirokchilarga "Galaxy" va "Foton"

oilasiga mansub tovarlar hamda hozirda

ishlab chiqarilayotgan yangi zamonaviy

og'ir yuk avtomobillari namoyish etildi.

Shuningdek, ko'p tarmoqli "Veyfan" va

"Oukang" zavodlariga tashriflar uyushtirilib,

endilikda nafaqat elektr energiyasida,

balki vodorod yoqilg'isida harakatlanuvchi

transport vositalarining ishlab chiqarilishi

jarayonlari bilan tanishtirildi.

Tadbir davomida "Foton International

Trade Co., Ltd." kompaniyasi rahbariyatiga

"Vatanparvar" tashkilotining mehnat

bozorida talab yuqori bo'lgan texnik

mutaxassislarni hamkorlikda tayyorlashga

doir bir qator takliflari taqdim etildi.



Xitoylik hamkorlar ushbu takliflarni ijobiy qabul qilib, tez kunlar ichida aniq javob qaytarilishini ma'lum qildi.

Joriy yilning aprel oyida "Vatanparvar"

tashkiloti markaziy kengashi va Xitoy

kompaniyasining O'zbekistondagi filiali

hisoblangan "SAMIST AUTO" MChJ

qo'shma korxonasi o'rtasida hamkorlik

memorandumi imzolangan bo'lib,

ushbu hujjat asosida hozirga qadar

"Foton" rusumidagi 65 ta transport

vositasi xarid qilingan, yana 35 ta sotib

olinishi kutilmoqda. Mazkur zamonaviy

yuk avtomobillaridan tashkilot o'quv

muassasalarining avtomototransport

vositlari haydovchilarini tayyorlash

kurslarida "BC" va "CE" toifalari bo'yicha

tahsil olayotgan fuqarolar amaliy

mashg'ulotlarni o'tashda foydalanmoqda.

O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti matbuot xizmati

Sana

Faxr

Bellashuv



"Davlatimiz ramzlari – ona Vatanimiz timsoli". "Bayrog'imiz Vatanimiz sha'ni kabi bebaho va muqaddasdir". Bu tushunchalarni yosh avlodga oilada bolalikdan singdirish, davlat ramzlariga hurmat va iftixor tuyg'usini bog'cha yoshidan shakllantirish va maktabda boshlang'ich sinfdan boshlab mustahkamlab borish muhim sanaladi.

Shu munosabat bilan Harbiy prokuratura organlari tomonidan kuch tuzilmalari va qator mutasaddi tashkilotlar bilan hamkorlikda "Bir Vatan, bir el, bir bayroq!" shiori ostida o'quvchi-yoshlar bilan turli tanlovlar va ma'rifiy tadbirlar tashkil etildi.

Xususan, Toshkent va Namangan viloyatlaridagi qator umumta'lim maktablarida "Jasorat sinfi" o'quvchilari ishtirokida Vatan bayrog'iga bag'ishlangan she'r, qo'shiq, sahna chiqishi va rasm chizish kabi ijodiy tanlovlar o'tkazildi.

Navoiy viloyatidagi harbiy qismlarning birida hamda Xorazm viloyati Gurlan tumanining chegaraoldi hududidagi mahallalarda o'quvchi-yoshlar ishtirokida vatanparvarlik tadbirlari o'tkazildi. Ularda bayrog'imiz haqidagi qonun mazmuni, bayroq tavsifi va tarixiga doir turkum mavzularda ma'lumotlar berildi.

O'tkazilgan barcha tadbirlarda faol qatnashchilar esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi.

Adliya mayori Sarvar YULDASHEV,
Urganch harbiy prokurorining yordamchisi

VATAN TIMSOLI

O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasida "Bir Vatan, bir el, bir bayroq!" shiori ostida tadbir bo'lib o'tdi.



Unda barcha hududiy harbiy prokuratura xodimlari videokonferens-aloqa orqali ishtirok etdi.

Tadbirda so'z olganlar ta'kidlaganidek, bayrog'imiz nafaqat davlatimiz ramzi, balki shu qutlug' zamin mehridan qonib yashayotgan barcha millat va elatlarning tinchlik, birdamlik va ahillik timsolidir.

Muqaddas bayrog'imiz bugun eng yuksak minbarlar, eng yuqori marralar va zafarli qo'llarda baland va mag'rur hilpiramoqda.

Jarayonda, shuningdek bu boradagi qonun mohiyati, bayrog'imizning tavsifi va yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashdagi o'rni va ahamiyati xususida so'z yuritildi.

Harbiy orkestr tomonidan ijro etilgan qo'shiqlar vujudlardagi vatanparvarlik tuyg'usini jo'shqinlantirib, tadbirga bayramona kayfiyat bag'ishladi.

Adliya katta leytenanti Sardor BEBETOV,
Termiz harbiy prokurorining yordamchisi

Bayrog'imiz – Vatanimiz ramzi. Unga bo'lgan hurmat esa vatanparvarlik, ma'naviyat va madaniyat darajasini anglatadi.

KO'RIK-TANLOV

Bu masala, ayniqsa o'quvchi-yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda alohida ahamiyat kasb etadi.

Shu munosabat bilan Namangan viloyatining Pop tumanida farzandlar tarbiyasida muhim o'ringa ega bo'lgan yosh onalar, shu jumladan harbiy ayollar, harbiylarning rafiqalari va mahalla xotin-qizlari ishtirokida "Bir Vatan, bir el, bir bayroq!" shiori ostida "Yangi O'zbekistonning vatanparvar ayollari" ko'rik-tanlovi o'tkazildi.

Ushbu tanlov O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasi tomonidan Oila va xotin-qizlar qo'mitasi, Qurolli Kuchlar vazirlik va idoralari bilan hamkorlikda tashkil etildi.

Tanlov ishtirokchilari Davlat bayrog'i to'g'risidagi qonun, bayrog'imizning tarixi, tavsifi hamda farzand tarbiyasidagi, o'quvchi-yoshlar kamoloti va vatanparvarlikni yuksaltirishdagi o'rni haqidagi bilimlarini namoyon etdi.

Yakunda g'olib va sovrindorlar munosib taqdirlandi. Maxsus konsert dasturi esa tadbirga bayramona shukuh bag'ishladi.

Adliya podpolkovnigi Sardor OXUNOV,
Namangan harbiy prokurorining yordamchisi

Yong'in xavfsizligi

GAZ USKUNALARIDAN FOYDALANISHDA XAVFSIZLIK QOIDALARI



Keyingi paytlarda aholi orasida tabiiy gazdan va gaz qurilmalaridan noto'g'ri foydalanish ko'plab baxtsiz hodisalarga va noxush oqibatlariga olib kelmoqda.

Soha mutaxassislari tomonidan ushbu hodisalarning kelib chiqish sabablari o'rganilganda, aholini gaz asboblariidan foydalanish qoidalariga rioya etmagani, bu borada malakaga ega emasligi natijasida, ayniqsa yosh bolalarning tabiiy va is gazidan zaharlanish hodisalari ro'y berayotgani aniqlandi.

Tabiiy va is gazidan zaharlanishning oldini olish uchun quyidagi tadbirlar bajarilishi zarur:

– isitish moslamalarini va tutun mo'rilarini shamollatish kanallarini viloyat hududiy yong'inga qarshi kurash jamiyati va uning bo'limlari tomonidan ko'rikdan o'tkazishni ta'minlang;



– gaz isitish pechlarining soz holda ishlashini muntazam ravishda nazorat qilib turing, tunda ularni o'chirib qo'yishni unutmang!

Turmushda tabiiy gazdan foydalanilayotganda abonentlarga quyidagilar taqiblanadi:

– o'zboshimchalik bilan uyni gazlashtirish, gaz asbobi o'mini almashtirish, uni yangilash va tuzatish;

– gaz asboblari o'rnatilgan xonalar rejasini o'zgartirish va gaz asboblari konstruksiyasiga o'zgartirishlar kiritish.

– fortchoklar, shamollatish kanallarining panjaralari, yuvinish xonasi va oshxona eshiklari ostidagi tirqishlar yopiqligida, dudburon hamda shamollatish kanallarida tortish bo'lmagan hollarda gazdan foydalanish;

– Xonada gaz hidini sezganda elektr asboblari yoqish yoki yoqilgan bo'lsa o'chirish.

Xulosa qilib aytganda, salomatligimizni asrash o'z qo'limizda. Vaziyatga to'g'ri baho berish esa xavfsizligimizni ta'minlashga xizmat qiladi.

Kapitan Eldor ERGASHEV,
Toshkent garnizoni
yong'in nazorati
inspeksiyasi boshlig'ining
o'rinbosari

Profilaktik tadbir

HAYOT KAFOLATI

2025–2026-yili kuz-qishni betalafot o'tkazish, mavsumda yong'in xavfsizligining oldini olish maqsadida harbiy qism va muassasalarda targ'ibot-tashviqot ishlari amalga oshirilmoqda.



Mudofaa vazirligiga qarashli qo'mondonlik tasarrufidagi Samarqand viloyati Qo'shrabot tumanida joylashgan harbiy qismda Favqulodda vaziyatlar vazirligi tuman bo'limi bilan hamkorlikda yong'in xavfsizligi bo'yicha profilaktik tadbir o'tkazildi.

Tadbir davomida is gazidan zaharlanishning oldini olish choralari, yong'in paytida to'g'ri harakatlanish tartibi hamda xavfsizlik qoidalarini batafsil ma'lumotlar berildi.

Shuningdek, ishtirokchilar birlamchi yong'in o'chirish vositalari va ularning to'g'ri qo'llash usullari bilan yaqindan tanishdi. Tadbir yakunida yong'in xavfsizligi bo'yicha eslatma bukletlari tarqatilib, yong'inlarning oldini olishda amal qilinishi lozim bo'lgan asosiy qoidalar bo'yicha tushunchalar berildi.

TOQQQ Matbuot xizmati

Mudofaaga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkilotlarida



BAYRAMINGIZ MUBORAK BO‘LSIN!

O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti Sirdaryo viloyati kengashi jamoasi soha xodimlarini 23-noyabr – "Vatanparvar" tashkiloti kuni bilan muborakbod etadi.

Yosh avlodni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga o'z hissasini qo'shayotgan mudofaaga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkilotining barcha xodimlarini hamda ko'p sonli a'zolarini samimiy tabriklaydi.

Muhtaram hamkasblar! Sizlarga sihat-salomatlik, farovonlik hamda Vatan ravnaqi, xalqimiz farovonligi yo'lidagi samarali ishlaringizda ulkan zafarlar yor bo'lsin!



Ayyomingiz qutlug' bo'lsin!

O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti Surxondaryo viloyati kengashi jamoasi Mudofaaga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti tizimida mehnat qilayotgan hamkasblarini va ularning oila a'zolarini hamda mehnat faxriylarini "Vatanparvar" tashkiloti tashkil topganining 34 yillik ayyomi bilan tabriklaydi.

Yosh avlodni barkamol etib tarbiyalashdek ezgu ishlaringizda ulkan muvaffaqiyatlar tilaymiz!



YOSHLAR MUSOBAQALARGA JALB ETILMOQDA

O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkilotining Samarqand viloyati sportning texnik va amaliy turlari markazida sportni yoshlar o'rta-sida yanada rivojlantirish, uning ommaviyligini oshirish yuzasidan muayyan ishlar amalga oshirilmoqda. Natijada viloyat terma jamoasi shakllantirilib, nufuzli musobaqalarda ularning ishtiroki ta'minlanyapti. Bugungi kunda viloyatda "Havo militg'idan o'tq otish", "Yozgi biatlon", "Duatlon", "Triatlon", "Motosport", "Aviamodel", "Radiosport", "Avtokross", "Karting" kabi o'ndan ortiq sport seksiyasi va to'garagi faoliyat ko'rsatmoqda. O'z navbatida, ularga tajribali sport murabbiylari birlashtirilgan.



– 2025-yilning oʻtgan oylari mobaynida oʻtkazilgan tuman (*shahar*) mintaqaviy hamda respublika miqyosidagi musobaqalarda sportchilarimiz muvaffaqiyatli ishtirok etdi, – deydi markaz direktori Dilshod Nosirov. – Musobaqa natijalariga koʻra, bir necha sport ustaligiga nomzod, birinchi toifali sportchi hamda ommaviy toifali sportchilar tayyorlandi. Sport seksiyalarining moddiy-texnik bazasini rivojlantirish maqsadida maxsus kiyim-boshlar, sport jihozlari xarid qilinib, sportchilar ixtiyoriga berildi.

Viloyat terma jamoasining 5 nafar aʼzosi respublika miqyosidagi nufuzli musobaqalarda qatnashib, umumjamoa hisobida 1- va 2-oʻrinlarni egalladi.

Ayni paytda markazda nafaqat sportning texnik va amaliy turlarini rivojlantirish, balki yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash hamda ommaviy kasb mutaxassislarini tayyorlash ishlari ham yo'lga qo'yilgan. Bugungi kunda markazda "B", "BC", "BE", "CE" hamda "D" toifali haydovchilar tayyorlanmoqda.

Bundan tashqari, yoshlarni ona Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash

borasida viloyat mudofaa ishlari, maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalari, Yoshlar ishlari agentligi bilan hamkorlikda belgilangan reja asosida muntazam ravishda tadbirlar o'tkazib kelinmoqda. Bunda yoshlar o'rtasida turli ko'rik-tanlovlar va sport musobaqalari tashkil etilmoqda.

Bunday tadbirlar ayniqsa, “Vatanparvar” tashkiloti tashkil etilganining 34 yilligiga bag‘ishlab o‘tkazilayotgani yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Akbar ALLAMURODOV

REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA

Diqqat, tanlov!



“O‘ZBEKISTON ARMIYASI: KECHA VA BUGUN”

**O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi
va boshqa tegishli tashkilotlar hamkorligida
O‘zbekiston Qurolli Kuchlari tashkil etilganining
34 yilligi hamda 14-yanvar – Vatan himoyachilari
kuniga bag‘ishlangan “O‘zbekiston armiyasi: kecha
va bugun” mavzusida fotosuratlar tanlovi e‘lon
qilinadi.**

Tanlovning maqsadi harbiy xizmatchilarning jangovar mashg‘ulotlardagi ishtiroki, erishgan yutuqlari, yurt himoyachilarining vatanparvarligi, matonati, jasorati, iftixori hamda Vatanga bo‘lgan beqiyos sadoqati ta‘sirli tarzda aks etgan fotosuratlarini targ‘ib etish orqali yoshlar o‘rtasida harbiy kasbga qiziqish uyg‘otish, xalqimizning o‘z himoyachilariga bo‘lgan hurmat va ehtiromini yanada mustahkamlashdan iborat.

Tanlovda quyidagilar qatnashishi mumkin:

- professional fotomuxbirlar;
- tasvircilar va dizaynerlar;
- bloggerlar va ijtimoiy tarmoq faollari;
- ftohavaskorlar;

– OAV va veb-sayt vakillari;

– harbiy xizmatchilar.

Tanlovga 2025-yilning

20-dekabrigacha 3 tadan

5 tagacha fotosurat Mudofaa vazirligi Ma‘naviyat va madaniyat departamentida to‘g‘ridan to‘g‘ri yoki elektron shaklda qabul qilinadi. Suratlarga ishtirokchilarning ma‘lumotnomasi, pasport yoki ID karta nusxasi ilova qilinishi shart.

Manzil: Toshkent shahri, Olmazor tumani, Sag‘bon ko‘chasi, 382-uy.

Elektron manzil: @yurt_posboni (elektron fayl yuboruvchilar uchun).

Telefon: 90 255-06-90 (ma‘lumot uchun).

FOTOSURATLARGA QO‘YILADIGAN TALABLAR

Fotosuratlar yuqori sifatli, aniq va estetik jihatdan mukammal, vatanparvarlik ruhida bo‘lishi shart.

Elektron yuboriladigan suratlarda 3 megabaytdan kam bo‘lmagan, 5000x3600 mm, 300 dpi hajmda bo‘lishi, besh donadan oshmasligi, har bir fotosurat uchun tasvirga olingan joy va sana, qisqa izoh yozilishi hamda barcha materiallar bitta “zip” papkaga joylashtirilishi zarur.

Tanlovni o‘tkazish tartibi va muddati:

Fotosuratlarini qabul qilish:

- 2025-yil 20-dekabr;
- g‘oliblarni aniqlash: 2025-yil 25–30-dekabr;
- taqdirlash marosimi: 2025-yil, yanvar.

Mukofotlar va nominatsiyalar:

Asosiy nominatsiyalar:

- “Eng yaxshi fotosurat” (professionallar uchun);
- “Eng yaxshi fotosurat” (havaskorlar uchun);
- “Harbiy xizmatchining eng yaxshi fotosurati”.

Rag‘batlantiruvchi mukofotlar:

- “Kecha va bugun aks etgan eng yaxshi kompozitsiya”;
- “Harbiy xizmatchining hayotini yoritgan eng haqqoniy tasvir”;
- “Harbiy xizmatchining baxtiyor oilasini aks ettirgan surat”;
- “Yosh fotomullif ishi” (25 yoshgacha bo‘lgan ishtirokchilar uchun).

Har bir nominatsiya bo‘yicha g‘oliblar quyidagi tartibda taqdirlanadi:

Asosiy nominatsiyalar bo‘yicha:

- 1-o‘rin (1 ta) – maxsus diplom va eng kam ish haqining 5 (besh) barobari miqdoridagi pul mukofoti;
- 2-o‘rin (1 ta) – maxsus diplom va eng kam ish haqining 4 (to‘rt) barobari miqdoridagi pul mukofoti;
- 3-o‘rin (1 ta) – maxsus diplom va eng kam ish haqining 3 (uch) barobari miqdoridagi pul mukofoti.

Rag‘batlantiruvchi mukofotlar bo‘yicha:

- har bir sovrindorga (3 nafar) – maxsus diplom va eng kam ish haqining 1 (bir) barobari miqdoridagi pul mukofoti.

G‘oliblarning eng sara ijodiy ishlari hamda hakamlar tomonidan eng yaxshi deb topilgan 34 ta fotosuratning ko‘rgazmasi Vatan himoyachilari kuni bayrami arafasida Toshkent fotosuratlar uyida tashkil etiladi.

**MUDOFAA VAZIRLIGI
MA‘NAVIYAT VA MADANIYAT
DEPARTAMENTI**



@Vatanparvargazetasi_bot
“Vatanparvar” birlashgan tahririyati
bilan bog‘lanish uchun telegram bot



BIZ HAQIMIZDA

VATANPARVAR



**MUASSIS
O‘ZBEKISTON
RESPUBLIKASI
MUDOFAA
VAZIRLIGI**

www.mudofaa.uz

Tahririyat kengashi:

general-mayor Hamdam Qarshiyev
podpolkovnik Timur Narziyev
Maqsud Abilov

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin. Gazeta Mudofaa vazirligi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar departamenti – “Vatanparvar” birlashgan tahririyatining kompyuter markazida sahifalandi.

Shu songa mas‘ul:

podpolkovnik
Gulnora Xodjamuratova

ISSN 2010-5541

Gazeta O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2008-yil 6-iyunda 0535 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

Telefonlar:

kotibiyat: 55 511-25-90
buxgalteriya: 55 511-25-76
yuridik bo‘lim: 55 511-25-72

Navbatchi: kapitan Shohrux Saidov
Sahifalovchi: Tohirjon Turg‘unboyev
Musahhih: Mastura Qurbonova

Buyurtma: V-6047

Hajmi: 6 bosma taboq

Bichimi: A3

Adadi: 31 955 nusxa

Bosishga topshirish vaqti: 14:00

Topshirildi: 14:30

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “O‘zbekiston” NMIU mas‘ul.

Gazeta juma kuni chiqadi. Gazeta 1992-yilning 24-iyunidan chiqqa boshlagan.

Nashr ko‘rsatkichi: 114.
Bahosi: kelishilgan narxda.

“O‘zbekiston” nashriyot-matbaa ijodiy uyi bosmaxonasida chop etildi. Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Alisher Navoiy ko‘chasi, 30-uy.

1 2 3 4 5 6

Manzilimiz: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Sag‘bon ko‘chasi, 382-uy.

t.me/mv_vatanparvar_uz
t.me/mudofaavazirligi

www.mv-vatanparvar.uz
vatanparvar-bt@umail.uz

mudofaavazirligi

mudofaavazirligi

www.youtube.com/c/UzArmiya